

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

UDK: 330.34(575.1)

Xaydarov Sanjar Murodilla o‘g‘li

5A230102-“Iqtisodiyot(real sektor)”

**«Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash: xalqaro
tajriba va milliy xususiyatlar**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., proff. Abulqosimov H. P.

Toshkent 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Barqaror iqtisodiy o‘sishning konseptual jihatlari va ta’minalash omillari.....	10
1.2. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalashning zaruriyati.....	18
1.3. Barqaror o‘sishni ta’minalashning huquqiy – institutsional asoslari... 1-bob bo‘yicha xulosa.....	28 36
2-BOB. «YASHIL IQTISODIYOT»NI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI	
2.1. «Yashil iqtisodiyot»ning rivojlanish bosqichlari.....	37
2.2. «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish va rivojlanirishning xorij tajribasi.....	41
2.3. Rivojlangan mamlakatlar energetika tarmog‘ini «Yashillashtirish» tendensiyalari..... 2-bob bo‘yicha xulosa.....	48 57
3-BOB. O‘ZBEKISTONDA «YASHIL IQTISODIYOT»NI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	
3.1. O‘zbekistonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlanirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash yo‘llari va unga ta’sir etuvchi omillar... 3.2. O‘zbekistonda muqobil energiyadan foydalanish samaradorligi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash istiqbollari..... 3-bob bo‘yicha xulosa.....	58 69 82
XULOSA.....	84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	87

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va asoslanishi.

Mamlakat iqtisodiyoti va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini jadal sur'atlarda oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni yanada yuksaltirish O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rurasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darjasini barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir" deb ta'kidlagan edilar.¹

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limlari, tarmoqlari va sohalari o'rtasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga bu esa o'z navbatida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflatsiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda, iqtisodiyotda modernizatsiyalash jarayoni va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishda energetika tarmog'ida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Energetika tarmog'ida resurslar samaradorligiga erishish talabning o'zgarishiga va yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishga xizmat qiladi. «Yashil energetika»ga o'tish, innovatsion uskuna va texnologiyalarga talabni rag'batlantiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotga «Yashil» tamoyillarni tatbiq etish uchun muhim

¹Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruba, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 8-b.

hisoblanadi. O‘zbekistonda kremniy zahiralarining mavjudligi fotoelektrik batareyalarni ishlab chiqarish istiqbolini yaratadi.

Yoqilg‘i-energetika resurslarining yetishmovchiligi va ularga bo‘lgan narxlarning o‘zgaruvchanligi sharoitida, mamlakatimiz aholisining hamda iqtisodiyotimiz asosiy tarmoqlarida energetika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, an'anaviy energiya manbalaridan muqobil energiya manbalariga o‘tishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Yangi «Yashil» me’yor va standartlarga o‘tilishi iste’molchilarni iqtisodiy madaniyati va moliyaviy savodxonligini oshishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, yuqori energiya samaradorligiga ega bo‘lgan tovarlarga talabning ortishiga sabab bo‘ladi hamda talab va taklif tarkibida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi.

Tadqiqot ishining ob’ekti va predmeti. Tadqiqot ishining **ob’ekti** barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning xorij tajribasi va milliy xususiyatlari bo‘lib hisoblanadi. **Predmeti** – «Yashil iqtisodiyot» rivojlanish jarayonida sodir bo‘ladigan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida «Yashil iqtisodiyot»ning muhim unsurlaridan biri bo‘lgan «Yashil energetika»dan oqilona foydalanish, cheklanmagan va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalangan holda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o‘sish va uning barqarorligini ta’minlash mohiyatini ochib berish;
- barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish yo‘lidagi vazifalarni aniqlash va uning taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- «Yashil iqtisodiyot» mohiyatini ochib berish, vazifalarini aniqlash va uning iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish, guruhlash;

- jahon amaliyotida «Yashil energetika»ning rivojlanish evolyutsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini baholash;
- «Yashil iqtisodiyot»ni investitsiyalashning xorij tajribasini qiyosiy baholash va uni rivojlanishidagi mayjud muammolarni aniqlash;
- jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida muqobil energiyadan foydalanish holati va dinamikasini tahlil qilish;
- iqtisodiyotga investitsiya yo‘naltirishning boy ilg‘or xorij tajribasidan qiyosiy o‘rganish asosida O‘zbekistonda «Yashil iqtisodiyot» taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan davlatning maqsadli dasturini ishlab chiqishda ijodiy foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- O‘zbekiston «Yashil iqtisodiyot»ini investitsiyalash jarayonini jadallashtirish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash va o‘rta istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- mamlakatimizda o‘rta va uzoq muddat kichik biznes korxonalarida qayta tiklanuvchi, cheklanmagan yashil energiyadan keng foydalanishni ta’minlashga qaratilgan muqobil ssenariya prognozlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- «Yashil iqtisodiyot»ning ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan;
- jahon amaliyotida «Yashil iqtisodiyot»dan foydalanish holati darajasi va uning komponentlari holati baholangan;
- jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlanishini jadallashtirishni investitsiyalash jarayoniga ta’sir etish dastaklarini baholangan;
- muqobil energetika tarkibi, rivojlanish tendensiyalari va ularni moliyalashtirish yo‘llari aniqlandi;

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish holati, rivojlanish tendensiyalari va muammolari aniqlandi, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirgan holda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O‘zbekistonda «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash sohalarini investitsiyalash jarayonining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va uning ta’lim tizimidagi istiqboldagi yo‘nalishlari ularga mos boshqaruv tizimini yaratish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlili. A. O‘lmasov va A. Vaxobovning e’tirof etishicha: «Iqtisodiy o‘sish iqtisodiyotning rivojlanishi, ya’ni hayotiy ne’matlar bo‘lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishining ko‘payib borishidir»². A.SH. Bekmurodov va U.V. G‘afurovning fikricha, «Iqtisodiy o‘sish bevosa Yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi»³. Iqtisodchi A. Mo‘minovning qarashicha: Iqtisodiy o‘sish deganda bevosa Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi qiymatining ortishi tushuniladi. Agar maqsad mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash bo‘lsa, u holda YaIM hajmining o‘sish suratlaridan foydalaniladi⁴.

Adabiyotlarda «Barqaror iqtisodiy o‘sish» tushunchasiga ham ta’riflar berilgan. Xususan, «Barqaror iqtisodiy o‘sish» tushunchasi milliy iqtisodiyotning shunday bir holatini ifodalashi kerakki, unda salbiy yoki nolga teng bo‘lishi mumkin bo‘lgan real o‘zgaruvchan mezon va ko‘rsatkichlar uzluksiz mutanosib sur’atda o‘sishi lozim⁵. «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlanishini jadallashtirish mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni isloh etish va

² O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2014.

³ Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning Yangi va yuksak bosqichi yo‘lida. -T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b.

⁴ Mo‘minov A. «Iqtisodiy o‘sish va uning omillari nimalardan iborat» //O‘zbekiston ovozi. 20.05.2016 y.

⁵ Словарь современной экономической теории Макмиллана – М., 1997. с. 471.

tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonlarini tadqiq etishda muhim ilmiy–amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

«Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy–amaliy jihatlari mahalliy iqtisodchi–olimlar Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X.,⁶ Maxmudov N.M, Hakimov H.A.,⁷ Djo‘rayeva S.Q.,⁸ Bozorov E.Q., Xatamov O.Q., Avliyaqulov A.,⁹ Isayev F.I., Qurbanov Z.N.lar¹⁰ tadqiq etishgan.

«Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishning nazariy – amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi – olimlar William Hynes, Shannon Wang¹¹, Erik Solheim, Patricia Espinosa, Nils Stieglitz¹², Molly Scott Cato¹³, Ralf Fuecks¹⁴, Boris Porfiriev¹⁵, Cameron Allen va Stuart Clouth¹⁶, Patrick ten Brink,¹⁷ Roland W.Chalons-Browne¹⁸, Reza Ardakanian, Dirk Jaeger¹⁹ tomonidan tadqiq etilgan.

Muqobil energetikadan foydalanishning nazariy va amaliy jihatdan MDH vakillari T.V. Zaxarova²⁰, Valentin Pchelintsev, Tatyana Kruglikova, Irina Jivotovskaya, Tatyana Chernomorova,²¹ Tkachenko Aleksandr Aleksandrovich²² va boshqalar.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri bo‘lib,

⁶“Яшил иқтисодиёт” асосида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари, “XXI аср: фан ва таълим” илмий электрон журнали, №2, 2017 йил.

⁷Макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш-барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шарти, “Иқтисодиёт ва Таълим” илмий журнали, №2, 2017

⁸Барқарор иқтисодий ўсиш ва уни таъминлаш босқичларининг таҳлили, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, №6, ноябр-декабр, 2014 йил

⁹“Иқтисодий ўсиш” Дарслик, Термиз Давлат Университети, 2009 йил

¹⁰“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, №1, январ-феврал, 2017 йил

¹¹William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012

¹²Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF, 2018. Global Trends in Renewable Energy Investment 2018, <http://www.fs-unep-centre.org>

¹³Molly Scott Cato, Green Economics, An Introduction to Theory, Policy and Practice, First published by Earthscan in the UK and USA in 2009

¹⁴Green Growth, Smart Growth- A new Approach to Economics, Environment&Innovation, 29. August 2016

¹⁵Boris Porfiriev, Climate Change and Economy, 7 July 2010

¹⁶A guidebook to the Green Economy, Division for Sustainable Development, UNDESA, August 2012.

¹⁷The Economics of Ecosystems and Biodiversity in National and International Policy Making, February 2011.

¹⁸Green Financing: More than a Trend, July 20, 2011.

¹⁹Water and the Green Economy capacity Development Aspects, UNW-DPC, Bonn, Germany, May 2012.

²⁰Т.В. Захарова «Зеленая» экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16), 2011.

²¹“Зеленая экономика” как глобальная стратегия развития в посткризисном мире.

²²«Зеленая» экономика и ее будущее, "Экономика. Налоги" журнал. №6. 2015

uning davomiyligi iqtisodiy taraqqiyotning istiqbolini belgilab beradi. Shu sababli tadqiqotda mavjud nazariyalar o‘rganildi va mamlakatimizdagi makroiqtisodiy barqarorlashtirish jarayonlari tahlil qilindi. Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, statistik kuzatish, guruhlash, iqtisodiy-matematik usullar kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va «Yashil iqtisodiyot»ni yanada rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish jarayonlarini jadallashtirish va uni investitsiyalash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarini hayotga tatbiq etish chuqr organilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan muqobil energetikadan foydalanishni uzoq muddatlarda yanada faollashtirish, rivojlanishi prognozlarini ishlab chiqishda davlatning maqsadli dasturlarini, hukumat qarorlarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkin. Tadqiqot ishi materiallaridan mamlakatimiz oliv o‘quv yurtlarida «Yashil iqtisodiyot» asoslari», «Yashil iqtisodiyot» nazariyasi», «Inson taraqqiyotida muqobil energetika» fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbliji, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, predmeti, tadqiqot ishining ob’yekti, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati keltirilgan.

Birinchi bob “Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy asoslari” deb atalib, unda iqtisodiy o‘sishning konseptual jihatlari va ta’minlash omillari, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning zaruriyati va huquqiy – institutsional asoslari ko‘rib chiqiladi. Shu bila birga iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning zaruriyati, va

huquqiy – institutsional asoslari o‘rganilgan. Ikkinchi bob «Yashil iqtisodiyot»ni shakllanishi va rivojlanishining xususiyatlari deb atalib, ushbu bobda «Yashil iqtisodiyot»ning rivojlanish bosqichlari, uni shakllantirish va rivojlantirishning xorij tajribasi, rivojlangan mamlakatlar energetika tarmog‘ini «Yashillashtirish» tendentsiyalari iqtisodiy tahlili qilingan. Uchinchi bob “O‘zbekistonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” ga qaratilgan bo‘lib, unda respublikamiz hududida «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash yo‘llari va unga ta’sir etuvchi omillar, O‘zbekistonda muqobil energiyadan foydalanish samaradorligi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash istiqbollari masalalari ahamiyatini iqtisodiy-matematik modellari orqali baholaniladi. «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalashning xorijiy tajriba va milliy xususiyatlarni chuqr o‘rgangan holda istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

1-BOB. BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Barqaror iqtisodiy o'sishning konseptual jihatlari va ta'minlash omillari

Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va jamiyat a'zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobjiy o'zgarishidir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir.

Iqtisodiy o'sish nazariyalarining rivojlanishida neokeynschilik, neoklassiklar va institutsionalizm yo'naliishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu yo'naliishlar doirasida esa iqtisodiy o'sishning turli nazariy modellari yaratila boshlandi. XX asrning o'rtalarida keynschilikning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asosida yangi yo'naliish, ya'ni neokeynschilik vujudga keldi. Iqtisodiy o'sishning dinamik modellarini ishlab chiqqan neokeynschilik vakillari orasida ingliz iqtisodchisi Roy Harrod (1900-1978 y.) o'z modelida ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromad va naqd kapital o'sishi o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildi. U milliy daromadning kapital sig'imlilik darajasini ifodalovchi "kapital koeffitsienti" tushunchasini yaratdi. R.Xarrod kapital sig'imlilik mezonidan texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda foydalandi.

Iqtisodiy o'sish nazariyalarining rivojlanishiga amerikalik olim Uolt Rostouning (1916-2003 y.) "iqtisodiy o'sish davrlari nazariyasi" katta ta'sir ko'rsatdi. U iqtisodiy o'sishning beshta davrini taklif etgan: "an'anaviy" jamiyat, "uchish" (ko'tarilish)ga shart-sharoit yaratish yoki o'tish davri, "uchish" (ko'tarilish) davri, yetilish (ilmiy-texnik inqilob) davri, yuqori ommaviy iste'mol davri.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari amerikalik olimlar Charlz Cobb (1875-1949 y.) va Pol Duglas (1892-1976 y.) tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish funktsiyasiga asoslanadi. Cobb-Duglas funktsiyasi hozirgi kunda ham iqtisodiy o'sishning alohida omillarini, ayniqsa texnik rivojlanishni baholashda foydalaniladi.

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924-y. tug'ilgan) o'z modelida jamg'armalar, mehnat resurslari o'sishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta'sir qilish mexanizmini aniqladi. Ushbu modelb iqtisodiy o'sishning muvozanatli traektoriyalarini tadqiq qilishga mo'ljallangan bo'lib, differentsial tenglamalar tizimi shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur model o'sayotgan asosiy kapitalning jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelishi mexanizmini ko'rsatadi. R.Solouning asosiy xulosasi shuki uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlari kapital qo'yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy omillari hisoblanadi.

Pol Romer (1955-y. tug'ilgan) va Robert Lukas (1937-y. tug'ilgan) 1980-yillar oxiri va 1990-yillarning boshlarida Solou modelidan qoniqmagan holda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya texnologik taraqqiyotni matematik tushuntirishni nazarda tutar edi va o'z ichiga ishchilar faoliyati samarasini oshiradigan bilim, malaka va qobiliyatni ifodalaydigan inson kapitali tamoyilini ham olgan edi. Boshqa kapital shakllaridan farqli ravishda inson kapitalining rentabelligi o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy o'sishi kapital to'plangani sari sekinlashmaydi va iqtisodiy o'sish sur'atlari kiritilayotgan kapital turiga bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini oshiradigan omillar sifatida esa ta'lim va innovatsiyalar keltiriladi.

XX asrning boshlarida Yozef Shumpeter (1883-1950 y.) iqtisodiy o'sish va rivojlanish nazariyalarining asoslarini yaratdi. Ushbu nazariyalarning rivojlanishiga Saymon Kuznets, Fernan Brodel, Teodor Shults, Geri Bekker,

Maykl Porter, Nikolay Kondratev va boshqa iqtisodchi olimlar o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Yozef Shumpeter birinchi bo‘lib iqtisodiyotning o‘sishi va rivojlanishi o‘rtasidagi farqni ajratib ko‘rsatdi va iqtisodiy o‘sishning asosiy kuchi sifatida innovatsiyalar mohiyatini tadqiq qildi. U o‘zining 1911-yilda birinchi marta nashr qilingan va asosiy ilmiy ishi bo‘lgan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli monografiyasida iqtisodiy o‘sishni aynan bir xil tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va iste’mol qilishning vaqt o‘tishi bilan miqdoriy o‘zgarishi, ya’ni oshishi bilan ifodalaydi. Yozef Shumpeter iqtisodiy rivojlanishni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, boshqarish va boshqa iqtisodiy faoliyat turlari va hayot jabhalarida ijobjiy sifat o‘zgarishlari va yangilanishi bilan ta’riflaydi.

“Iqtisodiy o‘sish” va “iqtisodiy rivojlanish” tushunchalari o‘rtasida farq mavjud albatta. Iqtisodiy o‘sish deganda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko‘payishini tushunsak, iqtisodiy rivojlanish deganda esa iqtisodiy o‘sishga nisbatan kengroq tushunchani, ya’ni nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishini, balki aholi turmush darajasi o‘sishini va iqtisodiyotda bo‘layotgan turli xildagi o‘zgarishlarni ham ifodalanishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o‘sishga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko‘p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. “Iqtisodiy o‘sish” tushunchasiga muqobillik sifatida ba’zida aholining turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich namoyon bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanish ko‘p jihatli jarayon hisoblanib, o‘z tarkibiga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlarni qamrab oladi.

Iqtisodiy o‘sish ekstensiv va intensiv turlarga bo‘linadi. Ekstensiv iqtisodiy o‘sish moddiy ishlab chiqarishda foydalilaniladigan resurslar hajmining oshishi natijasida kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, ekstensiv iqtisodiy o‘sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini

qo'shimcha jalg qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarmasdan qoladi.

Intensiv iqtisodiy o'sish esa ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanib mehnat unumdorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Real hayotda esa ekstensiv yoki intensiv o'sish alohida sof holda uchramaydi, balki o'zaro ta'sirlashadi va aralash holatda uchraydi.

Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish turlarining xususiyatlarini tizimlashtirib quyidagicha ifodalash mumkin. Iqtisodiy o'sish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'siri natijasida kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish omillari deb ishlab chiqarishning real hajmi oshishi, uning samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini aniqlab beruvchi hodisa va jarayonlarga aytildi. Iqtisodiy omillarga foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish va sifatini takomillashtirish omillari kirsa, noiqtisodiy omillar o'z ichiga siyosiy, harbiy, geografik, iqlimiyl, milliy va madaniy omillarni oladi.

Iqtisodiy o'sish turlari²³

1.1.1-jadval:

Iqtisodiy o'sish turlari	
Ekstensiv iqtisodiy o'sish	Intensiv iqtisodiy o'sish
Ishlab chiqarish omillari miqdorini avvalgi texnikaviy darajani o'zgartirmasdan oshirish	Ishlab chiqarish omillari sifatini takomillashtirish
Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi oshishining yo'qligi	Ishchilar chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining oshishi
Ishchilar sonining oshishi	Ishchilar malakasining oshishi
Kapital qo'yilmalarning oshishi	Tejamkorlik mexanizmi
Ishlayotgan xom-ashyo hajmining oshishi	Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish
Mahsulotlar tarkibiy tuzilishining o'zgarmasligi	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning usullarini takomillashtirish
Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish	Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish
Iqtisodiy inqirozning muqarrarligi	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

²³ Н.М.Махмудов, Ҳ.А.Ҳакимов, Макроиктисодий барқарорликни мустаҳкамлаш-барқарор иктисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шарти, Иктисодиёт ва Таълим, №2 2/2017

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish mexanizmiga ko'ra esa omillar bevosita va bilvosita omillarga bo'linadi. Bevosita iqtisodiy o'sish omillarini beshta guruhga ajratish mumkin: mehnat resurslari soni va sifati, asosiy kapitalning samaradorligi, tabiiy resurslar miqdori va sifati, boshqaruvning samaradorligi, texnologiyalar samaradorligi.

Bilvosita iqtisodiy o'sish omillariga esa talab va taqsimlash omillari kiradi: bozorlar monopolashuv darajasining pasayishi, ishlab chiqarish resurslari narxlarining pasayishi, soliqlar darajasining pasayishi, kredit olish imkoniyatining kengayishi va boshqalar.

Iqtisodiyot nazariyasida barqaror iqtisodiy o'sish degan tushuncha ham mavjud bo'lib, u barqaror rivojlanishning alohida tarkibiy qismi hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining ma'lum yillar davomida (odatda besh yil) ijobjiy va o'zaro muvofiq o'sish dinamikasidan vujudga keladigan iqtisodiy o'sishdir.

Makroiqtisodiy o'sish – butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o'sishdir. U jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining natijasi bo'ladi, turli korxona va tarmoqlardagi makroiqtisodiy o'sishning mazmuni sifatida yuzaga keladi. Mikroiqtisodiy o'sish – bu korxona, xo'jalik firma va tarmoq doirasidagi o'sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog'i guruhiy faoliyatning natijasidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- jamg'arishning yuqori darajasi;
- investitsiyalar samaradorligi;
- ta'limni rivojlantirishga kata harajatlar qilish;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv;
- ratsional makroiqtisodiy dasturlarni amalga oshirish;

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari 1960-1990 yillarda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga ega bo'lishgan. Bunday iqtisodiy o'sishni ta'minlagan omillarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- 1) kapital jamg‘arilishining yuqori sur’ati;
- 2) ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshiruvchi xorijiy texnologiyaning keng qo‘llanilishi;
- 3) infratuzilmadan samarali foydalanish, iqtisodiyot ochiqligining yuqori darajasi;

Demak, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘liga o‘tishi ko‘p jihatdan ushbu mamlakatning jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Yangi industrial mamlakatlarning tajribasini qiyosiy taqqoslaganda import o‘rnini qoplash siyosatiga nisbatan eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘sish modeli samaraliroqligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli mamlakatlar tashqi savdo yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishga harakat qilishadi. Ushbu holat jahon iqtisodiyotining o‘sishi sharoitida ommaviy tus oladi. 2010-2016 yillarda jahon iqtisodiyotida o‘rtacha yillik o‘sish 3% ni tashkil etdi. 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich 3,8 %ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2018 va 2019-yilda 3,9 %ga yetishi prognoz qilinmoqda.²⁴ Ushbu holat jahon iqtisodiyoti ochiqlik darajasining o‘sishiga turtki bo‘ldi.

Real iqtisodiy o‘sish mohiyati iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlarining yangi darajasida qayta tiklash va ruxsat berishdan iborat bo‘lib: ishlab chiqarish resurslarining cheklanmaganligi va jamiyat ehtiyojlarining cheklanmaganligi orasida²⁵.

Bu qarama-qarshilik ikki asosiy usulda bo‘ladi:

- ishlab chiqarish quvvatining oshishi hisobiga;
- ishlab chiqarish quvvati va jamiyatning ehtiyojlarining rivojlanishiga ega bo‘lgan samarali foydalanish hisobiga.

Biroq bu jarayonda har bir yangi bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayishidagi rivojlanishda barcha jamiyat ehtiyojlari qondirilmaydi. Jamiyat ehtiyojlari ishlab chiqarish resurslariga munosabatda doimo birinchi bo‘lsa - da,

²⁴ World Economic Outlook. April 2018. Cyclical Upswing, Structural Change. IMF. p.240

²⁵ «Iqtisodiy o‘sish» fanidan ma’ruzalar matni, Termiz 2009-yil, 4-bet

bu ehtiyojlarni qondiruvchi ishlab chiqarish maxsulotlari ma'lum mamlakatning ishlab chiqaruvchilari yoki import mahsulotlar vositalari o'zlashtirganda vujudga keladi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, ehtiyojlarining vujudga kelishi qadam-baqadam ommaviy tus oladi va ishlab chiqarishning uzlusiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari o'sishi miqdori bilangina emas, ularning tuzulmasida bir ehtiyoj ulushining ortishi va boshqasining ulushi pasayishi bilan shartlanadi. Ishlab chiqarish resurslari va chiqarish tuzilmasi, qoidaga muvofiq ehtiyojlar tuzilmasi kabi tez o'zgarishi mumkin emas. Mahsulot yoki xizmatga yangi ehtiyoj tug'ilishi uchun uning bir vaqtda ishlab chiqarishni o'zlashtirish va bozorda iste'molchilar talablariga mos, to'lash qobiliyatiga ega o'z sifati va narxi bilan ular talabiga javob beradigan yangi mahsulotning paydo bo'lishi faktori yetarli.

Shu bilan birga ma'lum tovar ishlab chiqarishni ommaviy o'zlashtirish uchun ma'lum muddat zarur. Ishlab chiqaruvchilar ortda qolishni kamaytirishgagina erishishlari mumkin, lekin uni butunlay eskirtira olmaydilar. Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiyotning asosiy sub'ektlarining iqtisodiy o'sishi tomon intilishi jamiyatda qanday rivojlanish darajasiga erishilganga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'ladi. Biroq ishlab chiqarish real shartlari o'sish potensialini realizatsiya qilishga har doim ham yo'l qo'ymaydi. Bunday sharoitlarda depressiya yoki xuddi ichki iqtisodiy omillar, kabi milliy iqtisodiyotga munosabatdagi ichki omillar (masalan, urushlar, ichki va xalqaro siyosatdagi uzgarish va boshqalar) bilan izohlanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy tanazzul boshlanadi.

Keyingi 10-15 yil ichida ko'pgina iqtisodchilar diqqati Janubiy-Sharqiy mamlakatlari iqtisodiy o'sish bilimlariga borib taqalmoqda. Bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishlaridagi yutug'i haqiqatdan ham afsonaviy xarakterga ega. Boshqa hech qanday rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bunday o'sish su'rati, qashshoqlikni pasayishi darjasasi, jahon bozoriga integratsiyasi, shuningdek, xayotiylik darajasining oshishi bo'yicha o'rnak bo'la olmaydi. Keyingi 25 yil

ichida bu yerda aholi talabi deyarli 4 barobar oshdi. Qashshoqlikda yashayotgan aholi qismi taxminan 2-3 hajmda kamaydi, aholi o'sish su'ratni tez tushib ketdi, ta'lim darajasi va salomatlik ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilandi. «Osiyo yo'lbarslari»(Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan) ning ketidan «ikkinchi avlod» (Indoneziya, Malayziya) bordi, xozir esa ratsional o'sishning Yangi harakati sifatida Xitoy nomoyon bo'ldi.

Inson faktorining ta'sirini hisoblashda faqat ishchi kuchining soninigina emas, balki ishchilarning jinsi, yoshi, ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligidan kelib chiqadigan mehant unumdorligini hisobga olgan, kapital omili ta'sirini hisoblashda ham u bir qator o'zgartirishlar kiritgan, ya'ni turar joy, ishlab chiqarish dastgohlari, sanoat inshoatlari, tovarlar zahirasi, xorijiy investitsiyalar ta'sirini ham hisobga olgan. Shularni hisobga olgan holda har bir alohida omilning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini aniqlagan.

Mehnat unumdorligani iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisoblashda E. Denison fikricha bu ta'sir quyidagi jarayonlar natijasida hosil bo'ladi:

1. Texnologik bilimlarni chuqurlashuvi yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish sharoitni yaxshilanishi;

2. "Qo'ldan berilgan imkoniyatni qayta tiklash", bu yuqori rivojlangan mamlakatlar tomonidan qoloq mamlakatlarga o'z bilim va tajribalarini berish va bu orqali ularni optimal nuqtaga yetkazish;

3. Ishlab chiqarishning jismoniy omillarini yaxshilanishi, bu omillarni ko'proq foyda keltiradigan soha va mintaqalarga sarflanishi.

Qachon omillarni joylashtirishda optimal holat yuzaga kelsa, ishlab chiqarish o'sadi. Denisonning fikricha bu xildagi optimallashtirishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

a) qishloq xo'jaligini intensivlashuvi natijasida hosil bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini joylashtirilishi natijasida yig'ilgan kapitalni yaxshiroq ishlatilishini ta'minlanadi;

- b) kichik mustaqil ishlab chiqaruvchilar sektorini qisqartirish (qishloq xo‘jaligidan tashkari band bo‘lganlari) orqali agrar sektorda bo‘layotgan o‘xhash o‘zgarishlarga erishish;
- c) xalqaro savdodagi mavjud cheklowlarni bekor qilish orqali xalqaro mehnat taqsimotini yaxshilash.

4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi va milliy bozorlarning kattalashuvi orqali iqtisodiyot masshtablarining o‘sishi.

1.2 Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning zaruriyati

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda makroiqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar va diversifikatsiyalash yo‘nalishlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlarning ahamiyati kattadir. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida vujudga kelgan nomutanosibliklarni hal qilinishi, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini takomillashtirish va uning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir. Shuni ta’kidlash kerakki, iqtisodiy o‘sishga erishish, uning sur’atlarini barqaror va maqbul darajada bo‘lishini ta’minlash nafaqat O‘zbekiston balki jahonning barcha davlatlari uchun ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi mamlakatning kuch-qudratini va aholining farovonligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Vatanimizda mustaqillik yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Jumladan, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorlik kasb etganligi, mamlakatimizni rivojlantirish borasida keying yillarda qayd etilayotgan natijalar yuqorida ma’lumotlarni qanchalik asosli ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda bir necha yillardan beri 5-8 % atrofida iqtisodiy o‘sish kuzatilmoxda. Biroq, bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sishga erishish juda

mushkul. Chunki iqtisodiy liberalizm yaratib bergen imkoniyatlardan hamma subyektlar har xil foydalanadi. Buning natijasida esa iqtisodiyotning real holatini baholash murakkablashib ketadi. Buning uchun ko‘plab modellar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotga tadbiq etish ancha mushkul. Shuning uchun iqtisodiy o‘sishga erishish uchun iqtisodiy muvozanat o‘rnatalishi kerak.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini tavsiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘sishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli aholi turmush darajasining haqiqiy o‘sishini to‘liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘sishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va aholi real turmush darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o‘sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta’sirini hisobga olmaydi.

Shunga qaramasdan, iqtisodiy o‘sishning barcha tavsifi YaIM yillik o‘sish sur’atlarining foizdagi o‘lchovida to‘liq o‘z ifodasini topadi:

bu yerda:

$$\Delta Y = \frac{Y_1 - Y_0}{Y_0} \times 100\%$$

ΔY – iqtisodiy o‘sish sur’ati, foizda;

Y_0 - taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

Y_1 - joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Iqtisodiy muvozanatlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Yalpi talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat. Yalpi talab jami ishlab chiqarilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarga sarflangan xarajatlarni ko‘rsatsa, yalpi taklif ijtimoiy ishlab chiqarish hajmini ko‘rsatadi. Muvozanatning bo‘lmasligi iqtisodiyotda “defitsit” ga yoki ortiqcha ishlab chiqarishga olib kelishi mumkin. “Defitsit” narx-navo ko‘tarilishiga va aholi turmush darajasi

tushib ketishiga olib kelsa, ortiqcha ishlab chiqarish takror ishlab chiqarishni izdan chiqaradi va inqiroz holatlarini keltirib chiqaradi.

2. Ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi muvozanat. Talab taklifni keltirib chiqaradi. Bu qonun iqtisodiyotning fundamental qonunlaridan biridir. Ammo, taklifa qarab talab paydo bo'ladi deb hisoblovchi nazariyalar ham bo'lgan, unga ko'ra bozor o'z iste'molchisini topadi. Muvozanatning ushbu turida iste'molchilar daromadi haqida axborot yetarli bo'lsagina ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatlaridan maksimal foyda, iste'molchilar maksimal naf oladilar.

3. Uy xo'jaliklari daromadlari bilan ularning xarajatlari o'rtasidagi muvozanat. Uy xo'jaliklari daromadlari tarkibi qanchalik differensial (xilma-xil) bo'lsa, ularning xarajatlarini prognozlashtirish shunchalik oson bo'ladi. Doimiy daromad manbai bo'lмаган uy xo'jaliklari ham borligini e'tiborga olsak, ular yashash minimumi uchun baribir "avtonom xarajat"lar qiladilar. Ya'ni "avtonom xarajatlar" daromadga bog'liq emas, daromadga ega bo'lмаган uy xo'jaliklari ham ushbu xarajatlarni amalga oshiradilar. Bu narsa "qarzga yashash" deb ataladi. Daromadlarning xarajatlardan oshishi aholi qo'lida oshiqcha pul paydo qiladi. Aholi qo'lidagi oshiqcha pul jamg'armani shakllantiradi. Bu esa potensial investitsiya degani. Ammo, aholi qo'lidagi ishlatilmay turgan pullarning to'planishi inflyatsiya jarayonlarini kuchaytirib yuboradi.

4. Pul massasi bilan tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat. Milliy iqtisodiyotdagi pul massasi yaratilgan tovar va xizmatlar hajmiga mos bo'lishi kerak. Tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan pullarning mavjud bo'lishi iqtisodiyotga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Pullar juda "oquvchan" bo'lгани bois pul muomalasini nazorat qilish qiyin. Shuning uchun ma'lum miqdorda eng sog'lom deb hisoblanuvchi iqtisodiyotlarga ham 6-7 % inflyatsiya tabiiy holdir.

5. Jamg'arish va investitsiya hajmi o'rtasidagi muvozanat. Jamg'arish iqtisodiyot miqiyosida yaratilgan qo'shilgan qiymat (foyda, daromad) larning

jamlanmasidir. Qo'shilgan qiymat o'z navbatida investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

6. Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish darajasi o'rtasidagi muvozanat. "Economics" darsliklaridan ma'lumki, YMMning 30% i investitsiyaga yo'naltirilsa, iqtisodiyot 6 %ga o'sadi. Demak, iqtisodiy o'sish investitsiyalar kiritishni taqazo etadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o'sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag'larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga qaratilishi muqarrardir.

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan murakkab shart-sharoitlarda makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiy o'sishni va aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hisobiga jahon iqtisodiy jahon iqtisodiy makonida mamlakatimiz o'zining mustahkam o'rniغا ega bo'lishiga erishish uchun iqtisodiy islohotlarning izchilligi va davomiyligini ta'minlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini yanada takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lmini kengaytirish talab etiladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi.

Shu sababli ham, «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir»²⁶.

²⁶ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'ZBEKISTON-2017-yil.

1.2.1-jadval

Makroiqtisodiy barqarorlik mezonlari²⁷

Ko‘rsatkichlar	Rivojlanayotgan davlatlar uchun makroiqtisodiy barqarorlik mezonlari	
	Mazmuni	Darajasi
Iqtisodiy o‘sish	Real YaIMning yillik o‘sishi, foiz	min 5
Pul massasisining o‘sishi	YaIM o‘sishiga mutanosib ravishda, foiz	min 5
Inflyatsiya darajasi	Istemol narxlari indeksi bo‘yicha, foiz	max 10
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz	max 7
Davlat byudjeti kamomadi	Yalpi ichkn mahsulotga nisbatan, foiz	max 3
Davlat qarzi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	max 60
Tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lovlar	Yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz	max 20
Oltin-valyuta zahiralari hajmi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	min 8
Valyuta almashuv kursi devalvatsiyasi	Milliy valyutani jahonning “qattiq” valyutalariga nisbati, foiz	max 15
Milliy bozorda xorijiy tovarlar ulushi	Bozor hajmiga nisbatan, foiz	max 40
YAIMda jamg‘armalar ulushi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	min 10
Aholi daromadlari bo‘yicha tabaqlanishi	Ditsel koeffitsienti, marta Jini koeffitsienti, indeks	max 10 max 0,35

Ilmiy adabiyotlarda makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilashga bo‘lgan turli yondashuvlarni uchratish mumkin. Mutaxassislarining fikricha, makroiqtisodiy barqarorlikka iqtisodiy, siyosiy, demografik, ilmiy-texnik, tabiiy va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi. Demak, makroiqtisodiy barqarorlikni iqtisodiyotning bir-biri bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan va bir-birini taqozo etadigan omillar ta’sirida shakllangan holati sifatida talqin qilish mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlikka quyidagicha fikr bildirib o‘tmoqchiman, real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli barqaror o‘sishi sur’atlarini,

²⁷ Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Fondi tavsiyalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ko‘lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi, inflyatsiya sur’atining jilovlanishi, ishsizlik darajasining past sur’atda ta’minlanib turilishi, milliy valyuta devalvatsiyasining past sur’atlariga erishilishi va davlat byudjeti taqchilligi ijobiy darajasida bo‘lishiga ta’sir qilgan hamda unga zamin yaratgan hodisa va jarayonlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi omillar deyiladi.

Mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi makroiqtisodiy barqarorqarorlikni ta’minlash davrlarini 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq (1.2.2-jadval).

1. 1991-1996 yillar: makroiqtisodiy beqarorlikka barham berish bosqichi (ishlab chiqarishning pasayishini to‘xtatish va iqtisodiy o‘sishga erishish).

2. 1997-2004 yillar: makroiqtisodiy barqarorlikka erishish bosqichi (YAIMning aholi jon boshiga o‘sishiga erishish, inflyatsiyani keskin pasaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash).

2005-yildan hozirgacha bo‘lgan davr: makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bosqichi (davlat byudjeti va joriy operatsiyalar hisobi ijobiy saldosini hamda yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash).

Istiqlol yillarida mamlakatimiz YaIM qariyb 6 barobarga, uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi esa 4 barobardan ziyodga oshdi. 2000-2016 yillarda qishloq xo‘jaligini mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 30,1 foizdan 16,1 foizgacha qisqargani holda, aksincha sanoatning ulushi mutanosib ravishda 14,2 foizdan 34 foizgacha oshgan.²⁸

Jahon iqtisodiyotida saqlanib qolayotgan murakkab vaziyat va dunyo bozorlarida yuzaga kelgan noqulay kon'yunkturaga qaramasdan, so‘nggi yillarda respublikamiz makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatgichlari bo‘yicha ijobiy natijalarga erishmoqda. Xususan, 2015-yil yakuni bo‘yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining real o‘sishi 2014-yilga nisbatan 8 foizni, 2016-yilda 2015-yilga nisbatan 7,8 foizni tashkil etdi.

²⁸ www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo’mitasining rasmiy sayti.

1.2.2-jadval:

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bosqichlari, uning omillari va natijalari²⁹

1991-1996 yillar	1997-2004 yillar	2005-2016 yillar
Makroiqtisodiy beqarorlikka barham berish	Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish	Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash
<p>1. Mustaqil davlatning asosiy institutlarini shakllantirish;</p> <p>2. Bozor iqtisodiyoti tamoyillari va asoslarini shakllantirish;</p> <p>3. Milliy valyutani muomalaga kiritish;</p> <p>4. Narxlarni erkinlashtirish;</p> <p>5. Real sektor korxonalarini davlat tomonidan qullab quvvatlash;</p> <p>6. Kichik va o‘rtta darajadagi xususiyashtirishni amalga oshirish;</p> <p>7. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimini shakllantirish va boshqalar.</p>	<p>1. G‘alla va energiya mustaqilligiga erishish;</p> <p>2. Strategik investorlarni qamrab olgan yirik xususiyashtirishni amalga oshirish;</p> <p>3. Yangi, yirik sanoat korxonalarini barpo etish;</p> <p>4. Sanoat sektorida mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish;</p> <p>5. Iqtisodiyot tarmoqlarida boshqaruv tizimini isloh qilish;</p> <p>6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish;</p> <p>7. Makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish va boshqalar.</p>	<p>1. Eksportni rag‘batlantirish uchun imtiyozlar berish;</p> <p>2. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash;</p> <p>3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash tarmoq dasturlarini amalga oshirish;</p> <p>4. Sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish;</p> <p>5. Erkin iqtisodiy zonalar, transport va logistika markazlarini barpo etish;</p> <p>6. Korporativ boshqaruv tizimidagi tartib-taomillarni yangilash;</p> <p>7. Barcha jabhalarda AKTdan keng foydalanish va boshqalar.</p>

Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan O‘zbekiston uchun respublikaning investitsion jozibadorligini tadqiq etish, investitsiya mablag‘larini ichki kapital resurslar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar asosida ko‘payishiga erishish bo‘yicha

²⁹ Iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlarning milliy iqtisodiyotga kapital mablag‘lari kiritishi ko‘p jihatdan mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatiga ham bog‘liq. Investorlar kapital mablag‘ yo‘naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qildilar.

Jahondagi barcha davlatlar singari bizning mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni ta’minlash, xususiy mulk va raqobatni himoyalaydigan qonunchilik bazasining shakllantirish investitsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning barpo etilishi, mamlakatning qulay geografik joylashuvi, agrosanoat sektorini rivojlantirish salohiyatining yuqoriligi va mamlakatning mineral-xomashyo resurslariga boyligi, yuqori malakaga ega mehnat resurslarining mavjudligi, savdo uchun ichki bozor hajmining kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

XXI asrning boshlarida mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar hajmi va uning tarkibidagi o‘zgarishlarga e`tiborimizni qaratsak, unda investitsiyalar hajmining keskin ortganligini va tarkibi sifat jihatidan yaxshilanganligini ko‘rishimiz mumkin. 2017-yil ma’lumotlari bo‘yicha, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2010-yilga nisbatan sal kam 4 martaga ko‘payib, 60 719,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha olganda korxonalar va aholi mablag‘lari 43,9 %ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 11,0 %ni, xorijiy investitsiyalar va kreditlar 26,9 %ni, davlat budjeti 5,5 %ni va budjetdan tashqari jamg‘armalar(tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, bolalar sportini rivolantirish jamg‘armasini qo‘sghan holda) 12,7 %ni tashkil etdi.³⁰

Xorijiy investorlarga yaratilgan shart-sharoitlar, o‘z vaqtida me`yoriy-huquqiy bazaning shakllantirilgani 2017-yilda xorijiy investitsiyalar miqdorini

³⁰ www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.


2010-yilga nisbatan sal kam 3 marta ortishiga sabab bo‘ldi. Shuni ta’kidlash joizki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlashda kapital qo‘yilmalar ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar salmog‘ining sezilarli darajada ulkan miqdorga ega bo‘lishi ijobjiy holat hisoblanadi. Chunki, davlat kafolatisiz mamlakat iqtisodiyotiga investorlar kapital mablag‘larini yo‘naltirishlari ularning milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritish natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha risklarni o‘z zimmalariga olganliklaridan dalolat beradi.

2017-yil ma’lumotlariga asosan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar salmog‘i YaIMga nisbatan 24,4 foizni tashkil etgan.³¹ Qayd etish lozimki, mazkur ko‘rsatkich dunyo mamlakatlari miqyosida hisoblangan investitsiyalarning o‘rtacha salmog‘idan yuqoridir. Ammo mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida strategik maqsadlarni belgilab olgan ekan, ularni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini oshirish zarur bo‘ladi. Buni ichki investitsiyalar hajmini ko‘paytirish va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish negizida amalga oshirish mumkin. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmini oshirishda ichki investitsiyalarga alternativ omil, bu faqat xorijiy investitsiyalar va kredit mablag‘lari hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog‘liq mavjud barcha resurs va zahiralarni o‘rganish va qaytadan ko‘rib chiqish, chet el kapitalini milliy korxonalarga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish borasida ish olib borish lozim bo‘ladi. Mamlakat ishlab chiqarish va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni yanada yuksaltirish O‘zbekistonda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning va jamiyat taraqqiyotiga erishishning muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholining eng ko‘p ta’minlangan 10 foizi va eng kam ta’minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o‘rtasidagi farq Detsil koeffitsienti 2015-yilda 7,7 barobarni tashkil etganini alohida ta’kidlash lozim.

³¹ O‘sma manba

Mamlakatimiz hukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o‘rta sinfni shakllantirish imkonini berdi.



1.2.1-rasm. Ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning Jini indeksi³²

Yangi ish o‘rinlari tashkil etish, bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib qolmoqda. Bu borada, ayniqsa milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari oshirib boorish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa bo‘lib qoldi.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o‘zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o‘sib borayotgani alohida e`tiborga molikdir.

Omilli tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli iqtisodiz o‘sishni ta’minlashda uning bilvosita ya’ni talab va taqsimot omillari uning bevosita omillari, ya’ni taklif omillaridan ko‘proq samara berar ekan.

Masalan, 2009-yilda bevosita va bilvosita omillarning ulushi mos ravishda 62 va 38 foiznin tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda ushbu nisbat mos ravishda 53

³² O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

va 47 foizni tashkil etgan. Bunga o‘z navbatida ichki va tashqi talabni rag‘batlantirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Kelgusi yillarda esa bu nisbat yanada ortishi kutilmoqda, bunga eng avvalo makroiqtisodiy siyosatda yuzaga kelayotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’sir etishi prognoz qilinmoqda.

1.3 Barqaror o‘sishni ta’minlashning huquqiy – institutsional asoslari

O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimining nobarqarorligiga qaramasdan, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’milanib kelinayotgani mamlakatda tanlangan islohotlar modelining to‘g‘ri va to‘liq hayotiy asosga ega ekanligini tasdiqlamoqda.

O‘zbekiston so‘nggi 10 yil davomida barqaror yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga (5-9 foiz) ega bo‘lib kelmoqda. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi kabi iqtisodiy tarmoqlarda ham ishlab chiqarish hajmi barqaror oshib bormoqda. Xususan, 2013-yilda ham mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo‘jaligi — 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi — 14,8 foizga oshdi. O‘zbekiston jahon moliyaviy inqirozi davrida ham iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qoldi va ayniqsa xizmatlar va iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar o‘sish sur’atlari ushbu davrda o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi.

Milliy iqtisodiyotning liberallahushi valyuta kursi o‘zgarishi, tashqi savdo va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati orqali iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi savdoning YAIMdagi ulushini ortishi “miqyos samarasi” dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa sanoat tarmoqlarida, jumladan qayta ishlash sanoat korxonalarida texnik modernizatsiyalashni chuqurlashtirish imkonini yaratadi.

Milliy iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlash to‘liq darajada ishlab chiqarish omillari bilan ta’milanganlik darajasiga bog‘liq. Ushbu omillar tarkibida capital o‘ziga xos muhim o‘rin egallaydi. Investitsion faollikni ortishi ishlab chiqarishni yangi texnika va yuqori texnologiya bilan qurollanishiga olib

keladi. Mehnat resurslarini capital bilan ta'minlanganligini ortishi mehnat unumdorligini va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yangi yuqori texnologiyalarni mujassamlashtirgan mahsulotlarni mamlakatga olib kelish orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalashga ko‘maklashadi. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish imkonini beradi.

Valyuta kursi dinamikasi mamlakatning tashqi savdo sharoitiga, eksport va import baholariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Valyuta kursining o‘sishi milliy valyuta xarid qobiliyatini pasayishi orqali sof eksportning ko‘payishiga shart-sharoit yaratadi. Valyuta kursining o‘sishini sof eksportga ta’siri eksport va importning narxga nisbatan elastiklik darajasiga bog‘liq. Mamlakat eksporti tarkibida sanoat mahsulotlarining, jumladan qayta ishslash sanoati mahsulotlarining ko‘payishi eksportning narxga nisbatan elastiklik darajasini o‘sishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning harakatlar strategiyasiga binoan milliy iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish rejalahtirilgan. Ushbu jarayon iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar bilan birgalikda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanishini ta’minalash kerak. Bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bojxona siyosati va valyuta siyosatidagi o‘zgarishlar mamlakatimizning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirib iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Jahon bankining bergen prognoziga binoan O‘zbekiston iqtisodiyoti 2018-yilda 5,6% ga, 2019-yilda 6,3% ga va 2020-yilda 6,5% o‘sishi kutilmoqda.³³ Xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan ushbu prognozlar O‘zbekiston iqtisodiyotini liberallahib jahon xo‘jaligidagi o‘ziga xos munosib yuqori o‘rin egallab kelayotganini aks ettiradi.

³³ Global Economic Prospects. Broad-Based Upturn, but How Long? January 2018, IBRD/The World Bank. Washington, D.C. p.233

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga jalg qilinayotgan investitsiyalar, xususan xorijiy investitsiyalar hajmini ko‘paytirish, mahsulotlar eksporti tarkibini takomillashtirish, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini yanada optimallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, kichik biznes rivojini rag‘batlantirish, banklarning kreditlar berish imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi hukumat chora-tadbirlari barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda asosiy omil bo‘lmoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatlari makroiqtisodiy barqarorlikka erishishni ko‘zlab ishlab chiqiladi. Iqtisodiy tafakkur tarixida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning yo‘llarini ko‘rsatuvchi ta’limotlar, nazariyalar juda ko‘p bo‘lgan. Ammo bu borada hali-hanuz bir to‘xtamga kelinmagan. Bunga sabab milliy iqtisodiyotlarning dinamikaga moyilligi va institutsional omillarning ularga turlicha ta’sir etishi bois strategik modellarni bir qolipga solib bo‘lmasligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti barqaror rivojlanish haqida shunday deydi - “Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta’minalash maqsadida “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan tamoyildan kelib chiqib, bugungi kunda yurtimizda ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash uchun yangi imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda”.³⁴

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, yangi loyihalarni ishga tushirish va yangilarini modernizatsiya qilish bilan aholi keng qatlaminis ish bilan ta’minalash, yangi loyihalarni moliyalashtirishda real investitsiyalarni jalg etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Jahon amaliyoti va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalariga ko‘ra makroiqtisodiy barqarorlik darjasini bilan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash o‘rtasida bevosa bog‘liqlik mavjud.

³⁴O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimi”dagi nutqi, <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/981>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi natijasida 2017-2021 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishslash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda sifat omillarini jadallashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlandi. Istiqbolda sifat omillarini yanada faollashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- iqtisodiy asoslanmagan hamda samaradorligini baholash qiyin bo‘lgan imtiyozlarni bekor qilish orqali, soliq solish sharoitlarini tenglashtirish va soliq yukini qayta taqsimlash;
- TIFni amalga oshirishda erkin almashinuvchi valyuta bilan teng o‘rinda asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalarida shu qatorda so‘mda amalga oshirilishida ruxsat berish;
- investitsion loyihalar va ijtimoiy dasturlarni birgalikda moliyalashtirish, iqtisodiy siyosat va amaliyotni ishlab chiqishda tadbirkorlik vakillarining keng ishtirokini nazarda tutuvchi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish.

Mustaqillikka erishgan mamlakat uchun eng bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo qilish va mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish hisoblanadi. Ushbu masalaga barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan. Ayniqsa, aniq bir rivojlanishning modelini yaratish yoki yaratilgan modellarning qaysi biridan foydalanish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi oldida aniq maqsadga ega bo‘lgan va ilmiy asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlab olish zaruratinini keltirib chiqardi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan yaratilgan o‘zbek modeli ham dunyo davlatlari tomonidan tan olingan va bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholangan taraqqiyot

modellaridan biri hisoblanadi. Fikrimcha, O‘zbekiston Respublikasi harakatlar strategiyasi «O‘zbek modeli» ning mantiqiy davomi bo‘lib, 2017-2021 yillarda mamlakatimiz taraqqiyotining yuqori bosqichlarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarni strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini qamrab olgan hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur farmonga asosan 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Milliy komissiya rahbari etib belgilandi. Dasturning 3-ustuvor yo‘nalishi «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari» deb nomlangan edi.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- iqtisodiy mustaqillikni rivojlantirish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash;
- yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- moliya-bank sohasini isloh etish;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish;
- xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish.

Ba’zi mamlakatlar boshqalarga nisbatan tezroq rivojlanishini, iqtisodiy o‘sishni qanday tezlashtirish mumkinligini, ya’ni davlatlararo va ma’lum vaqt oralig‘ida real YaIM (kishi bishiga to‘g‘ri keluvchi real YaIM) darajasi va uning o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi farqni tushunish uchun iqtisodiy o‘sishning turlari va omillarini tahlil qilish kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarining oshishi va potentsial YaIM hajmining o‘sishi ko‘p jihatdan resurslarning hajmi yoki ular sifatining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Aholi turmush darajasi va mehnat unumdorligi oshishiga davlatning iqtisodiy siyosati sezilarli darajada ta'sir etadi. Eng avvalo iqtisodiy siyosat orqali davlat jismoniy va inson kapitaliga ta'sir etish mumkin. Agar iqtisodiyotda capital zahiralari ortib borsa, mamlakatning iqtisodiy salohiyati oshadi va kelgusida iqtisodiyot ko'proq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishi mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining o'sib borishida muhim omil bo'ldi. Bunda aholining turli guruhlari daromadlari darajasidagi tafovutni aks ettiradigan Jini koeffitsienti 1991-2015 yillarda 0,40 dan 0,280 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdab taraqqiy etgan davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, ayniqsa, valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug'ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish asosida milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash.

Bank-moliya tizimini isloh qilish borasidagi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

1) davlat mablag'lari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga va Markaziy bank pul-kredit siyosati vositalarini yanada takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirishga, naqd pul muomalasi mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

2) xalqaro talablar asosida bank faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy tamoyil va mexanizmlarni joriy qilish;

3) tijorat banklarida naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron

shakllarini joriy etish va tadbirkorlik sub'yeqtalarini rag'batlantirish, shuningdek, bankdan tashqari aylanishini qisqartirish;

4) tijorat banklari cassalariga naqd pul tushumlarini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

5) banklarda kreditorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida quyidagi tartiblarni belgilash;

6) kapitalni jalg qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;

7) Respublika byudjet xarajatlarini yanada optimallashtirish, shaharlar va tumanlarning subvensiyalanishini kamaytirish, fiskal nomarkazlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

8) soliq ma'muriyatichiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida soliqqa tortishni takomillashtirish;

9) imtiyozlarning individual tartibda berilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularni maqbullashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish orqali:

a) xalqaro moliyaviy institutlar pul mablag'larini jalg qilish orqali moliyalashtiriladigan investitsiyaviy loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

b) islom taraqqiyot bankining 1,0 mlrd. doll.dan kam bo'limgan miqdorda kreditlarini jalg qilishni ko'zda tutadigan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish masalasini ishlab chiqish orqali 2017-2019 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish;

c) ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infrastruktura va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SHTHA), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;

Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish mamlakatning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini yanada mustahkamlashga hamda O'zbekistonda rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mamlakatning ishlab chiqarish va eksportida xom ashyo tovarlarining yetakchi o'rinni egallashi milliy iqtisodiyotning jahon xom ashyo tovarlari bozori konyukturasiga qaramligini oshiradi, hamda barqaror taraqqiyotga to'sqinlik qiladi.

Mamlakatda sanoatning jadal rivojlanishi va aholining o'sishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini oshiradi va bu, o'z navbatida, atrof-muhitga salbiy ta'sirning ortishiga olib keladi. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishni taqozo etmoqda. Bugun O'zbekistonda tarkibiy o'zgartirishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki hamda global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, rivojlanishning yangi modeli – resurslardan samarali foydalanishni ko'zda tutadigan iqtisodiyotga o'tish, izchil tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Yalpi ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, inflatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini yalpi holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish ishning dolzarbligini belgilab beradi.

1-BOB bo‘yicha xulosa

1-bob bo‘yicha xulosa quyidagilardan iborat, xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minalash va jamiyat a’zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiyligi o‘zgarishidir.

“Iqtisodiy o‘sish” va “iqtisodiy rivojlanish” tushunchalari o‘rtasida farq mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Iqtisodiy o‘sish deganda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko‘payishini tushunsak, iqtisodiy rivojlanish deganda esa iqtisodiy o‘sishga nisbatan kengroq tushunchani, ya’ni nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishini, balki aholi turmush darajasi o‘sishini va iqtisodiyotda bo‘layotgan turli xildagi o‘zgarishlarni ham ifodalanishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o‘sishga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko‘p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan O‘zbekiston uchun respublikaning investitsion jozibadorligini tadqiq etish, investitsiya mablag‘larini ichki kapital resurslar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar asosida ko‘payishiga erishish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, ayniqsa, valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug‘ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minalashga yo‘naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish asosida milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta’minalash.

2-BOB. «YASHIL IQTISODIYOT»NI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

2.1. «Yashil iqtisodiyot»ning rivojlanish bosqichlari

Ilmiy tadqiqotlarda «Yashil iqtisodiyot» tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda³⁵ qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda «Yashil iqtisodiyot» mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba'zi tadqiqotlarda «Yashil iqtisodiyot» tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa «Yashil iqtisodiyot» – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish, uning asosini sof yoki «Yashil» texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.“”

«Yashil iqtisodiyot» tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, «Yashil iqtisodiyot» - bu «odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish»ga olib keluvchi iqtisodiyotdir³⁶. Mazkur tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi «Yashil iqtisodiyot» konsepsiysi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, «Yashil iqtisodiyot» nazariyasi, tamoyillari yoki «Yashil iqtisodiyot» siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi³⁷. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng

³⁵ Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.

³⁶ Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/ГридАренда, 2011. С. 17.

³⁷ O'sha joyda. C. 20.

miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi. «Yashil iqtisodiyot»ning maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalangan va salbiy ekologik ta'sirlarni nisbatan kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir.

«Yashil iqtisodiyot» haqida so'z borar ekan, uni atrof-muhit bilan uzviy bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim, aynan ekologiyaning tobora yomonlashib borishi butun insoniyatni ushbu global muammoning yechimini topishga undaydi.

Avvalambor, ekologiya haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishimiz kerak, chunki aynan atrof-muhit muammolari aynan ana shu tushuncha bilan ifodalanadi. 1866-yili nemis biologi Ernst Gekkel ilk bor kelib chiqishi yunoncha bo'lgan oikos (uy) va –logos (o'rghanish) so'zlaridan ekologiya so'zini yaratdi. Ekologiya tirik organizmlar orasidagi va ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosbatlarini o'rghanishini aytib o'tgan. Tarixan bu yo'nalishni biologiya o'rgangan. Ekologiya tushunchasi paydo bo'lgach, uning asosiy o'rghanish ob'ektlari quyidagilarga bo'lindi:

- **populyatsiya** – ma'lum bir hududda joylashgan, bir yoki o'xshash turlar hisoblangan organizmlar guruhi;
- **ekotizim** va uning yashash muhitini o'z ichiga oluvchi tizim;
- **biosfera** – yerda hayot tarqalgan qismiga.

Bugungi kunda ekologiya biologiya doirasidan chiqib, boshqa fanlarga integrallashgan, fanlararo, insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rGANUVCHI fanga aylandi. Ekologiya «inson—tabiat» muammosini tushunish yo'lida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Global ekologik muammolar paydo bo'lguniga qadar inson tabiatga ustaxon sifatida qarab, uni bo'ysindirish yo'lida bor kuchini ayamadi. Oqibatda bugungi kunda insoniyatning kelajagi xavf ostida qolganligi, o'zining tabiatdagi o'rni va hayotining mazmuni bevosita tabiatni asrash bilan bog'liqligini anglab etmoqda. Mazkur muammoning dolzarbliji, global ekologik muammolar sayyoramizdagi har bir davlat, har bir xonardon va har bir insonga tegishli ekanligi mazkur yo'nalishda huquqiy bazani shakllantirish, tegishlo qonunlar qabul qilishga asos bo'ldi.

“Agar biz atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, «Yashil iqtisodiyot» o’sishiga o’z hissamizni qo’shsak, dunyo bo’ylab quyosh energiyasiga yo’naltirilgan investitsiyalarning ajoyib o’zgarishlari qanchalik ko‘p narsalarga erishishimiz mumkinligini ko‘rsatib bermoqda”, deydi BMTning Atrof-muhit bo‘yicha rahbari Erik Zolhaym. Nils Shtiglitsning fikricha “Qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritgan holda, davlatlar odamlarning hayoti va turmush farovonligini yaxshilashga hamda yangi jamiyatlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va ayni vaqtida ular nafas olayotgan havoni tozalash imkon yaratiladi”.

Bugungi kunda zamonaviy ekologiya shunchaki jonivorlar va o’simliklar hayotini tasvirlamaydi, aksincha ularning kelajagini bashorat qilish bilan shug‘ullanadi. Zamonaviy ekologiya tiriklikning tuzilish darajalarini tahlil qiladi hamda matematik modellar va farazlar ishlab chiqib, ularni tekshiradi. Zamonaviy ekologiyaning bosh maqsadiga tirik organizmlarning tarqalishi va sonini tushuntiradigan va bashorat qiladigan modellarni rivojlantirish, bu orqali balki o’simliklar va yovvoyi hayvonlarni to‘g‘ri nazorat qilish, qayta tiklanuvchi va tiklanmaydigan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish, tabiiy muhitlar va moddalarning aylanishini saqlash, oziq-ovqat bilan ta’minlash, bezgak va OITS kabi kasallliklarning ta’siri va yo‘nalishini oldindan ayta olish ham kiradi. Yuqori siyosiy darajada atrof-muhit muhofazasi mavzusi ilk marotaba 1972-yili Stokgolmda mazkur mavzuga bag‘ishlangan BMT Konferentsiyasida ko‘tarilgan edi. Aynan ushbu anjumanda «inson farovon va yuqori qadr-qimmatga ega hayotni taqozo etadigan muhitda yashamog‘i lozim» deyildi³⁸. Er yuzidagi biosfera degradatsiyasi sabablarini tahlil etish maqsadida Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha butunjahon qumitasi tashkil etildi. Mazkur Qo‘mita 1987-yili «Bizning umumiyligi kelajagimiz» sarlavhasi ostida ma’ruza tayyorladi. Unda rivojlangan mamlakatlardagi isrofgarchilik va rivojlanayotgan mamlakatlardagi yetishmovchilik ekologiyaning yomonlashuvining asosiy sabablaridan biri sifatida tilga olindi. Sayyoramizni saqlab qolish uchun esa

³⁸ <http://www.eclife.ru/laws/inter/1972/04.php>

jahon hamjamiyati xatti-harakatini birlashtirish lozimligi qayd etildi³⁹. Birinchi marotaba «barqaror rivojlanish» tushunchasi, ya’ni kelajak avlod uchun tabiatni saqlash, inson va tabiat uyg‘unligiga asoslangan rivojlanish aynan mazkur ma’ruzada keltirildi.

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiysi tarafdorlari amaldagi iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan takomil emas, deya hisoblashadi. Ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapitalning tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning etishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Shuning uchun amaldagi iqtisodiy model «jigar rang» iqtisodiyot deb ataladi.

Ekologiyaning buzilishi, iqlim o‘zgarishining bir qator xatarli oqibatlari bugungi kunda insoniyatga juda katta tahdid tug‘dirmoqda. Bugungi kunda atmosferada karbonad angidrid gazi (CO_2) konsentratsiyasi ekologik sarhadga yaqinlashib qoldi va kerakli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, yaqin kelajakda bu ko‘rsatkich yanada yomonlashishi mumkin. Iqlim o‘zgarishi ko‘plab mamlakatlarda dengiz sathining ko‘tarilishiga olib kelmoqda. Xatarli jihat shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda 14 foiz aholi va 21 foiz shaharliklar suv toshqini xavfi mavjud sohilbo‘yi mintaqalarida istiqomat qiladi.⁴⁰

Dunyoda yoqilg‘i inqirozi tahdidi kuchayib bormoqda. Xususan, jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi sodir bo‘lishidan avval, bir barrel neftning bahosi 150 AQSh dollaridan oshgan edi. Retsessiya sabab neftning bir barreli 40 AQSh dollaridan ham tushib ketgan bo‘lsada, Xalqaro energetika agentligi prognozlariga ko‘ra, talabning oshishi va ishlab chiqarish hajmi chegaralangani

³⁹ Наше общее будущее. Всемирная комиссия ООН по окружающей среде и развитию, Оксфорд, 1987. 347 с.

⁴⁰ The Ecological Wealth of Nations: Earth’s Biocapacity as a New framework for International Cooperation; Human Development report, 2009

bois 2030-yilda neftning bir barreli 200 AQSh dollariga qadar ko‘tarilishi mumkin.

Global inqirozlarning barchasi ish o‘rinlari qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik kabi, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi.

Zamonaviy ekologiyani asrashning bosh maqsadlaridan biri bo‘lgan qayta tiklanish xususiyatiga ega manbalar va atrof-muhitga zararli bo‘lgan chiqindilardan oqilona foydalangan holda olinadigan biogazlardan mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy riovjlanishida keng foydalanishdir. Qayta tiklanuvchi energiya – bu atrof-muhit energiya oqimidan olinadigan energiya manbaidir. Bularga quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, sanoat va munitsipal, qishloq xo‘jalik chiqindilaridan olingan biogaz kiradi. Muqobil energiya manbalari shaharlarda birlamchi uglevodorod resurslarini tejash, mamlakat energetika xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Sanoatda va binolarda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, transport tizimini rivojlantirish “yashil iqtisodiyot” shakllanishida muhim o‘ringa ega. Ushbu choralar nafaqat energiya sarfini kamaytirish orqali atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqarilishini kamaytiradi va energiyaga sarflanayotgan harajatlar qisqarishiga olib keladi. Atmosferaga uglerod chiqarishda sanoatdan keying o‘rinda turuvchi transport tizimida elektromobillar ishlab chiqarish (ularga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish), jamoat transportini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chiqindilarni qayta ishslash ularning ekologiyaga salbiy ta`sirlarini kamaytiradi, resurslarni tejash, mahsulot tannarxlarini kamaytirish, ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

2.2. «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish va rivojlantirishning xorij tajribasi

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit

muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, «Yashil iqtisodiyot» barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmaydi, balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ulardan kam bo‘limgan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozimligida namoyon bo‘ladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi.

«Yashil iqtisodiyot» konsepsiysi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobjiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan mukammal emas, deb hisoblashadi. Ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapital cheklanganligi, tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq- ovqat, energiyaning etishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Yuqoridaq sabablarga ko‘ra amaldagi iqtisodiy model “jigar rang iqtisodiyot”, deb ataladi. Jahonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish tashabbusi UNEP tomonidan 2008-yilda ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ekologiya bilan bog‘liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish;
- “yashil” ishchi o‘rinlarni yaratish hisobidan aholi bandligini ta’minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanish.

UNEP tadqiqotlariga ko‘ra jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilga qadar har yili 2 trln. dollar iqtisodiy


foyda olish imkonini yaratadi. Bu davrda dunyo aholisi soni 28%ga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71%ga ortishi bashorat qilinmoqda.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qat'iy choralar ishlab chiqilmas ekan, metallar, biyoqilg'i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste'moli 85 mlrd. tonnadan 186 mlrd. tonnagacha ko'payishi mumkin. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun sarflanayotgan investitsiyalar aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ulushining 3,7%ga qisqarishiga olib kelgani holda resurslardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish ushbu yo'qotishni qoplab ketishi mumkin. Misol uchun, Buyuk Britaniyada 2005-2010 yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln. tonna chiqindi qayta ishlangan va ulardan ikkilamchi marta foydalanilgan. Bu esa 6 mln. tonna issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish, 10 mln. tonna birlamchi materiallar va 10 mln. litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ishchi o'rinnari yaratilgan.

«Yashil iqtisodiyot»ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shuning uchun avvalo, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanilayotgan rag'batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni "yashillashtirish" jarayoni yanada faollashadi.

Rasmdan yaqqol ko'rinish turibdiki, shamol energiyasi texnologiyalariga yo'naltirilgan global investitsiyalar so'nggi 8 yil davomida juda katta miqdorni tashkil etmoqda. 2004-yilda ushbu sohaga jalb qilingan sarmoya sal kam 20 mlrd. AQSh doll.ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2010-yilga kelib 100 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketdi. Keyingi 3 yil ichida pasayishni kuzatishimiz mumkin. Shamol energiyasi texnologiyalariga yo'naltirilgan global investitsiyalar hajmining bugungi davrgacha bo'lgan eng yuqori ko'rsatkichi 2015-yilda kuzatildi, ya'ni 124,7 mlrd. AQSh doll. demakdir. 2017-yilda shamol

energiyasi texnologiyalariga yo‘naltirilgan global investitsiyalar 107,2 mlrd. AQSh dollarini hamda gidroenergetika(kichik) texnologiyalariga kiritilgan global investitsiyalar 3,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi (2.2.1-rasm).




**2.2.1-rasm. 2004-2017 yillar davomida shamol energiyasi va
gidroenergetika(kichik) texnologiyalariga kiritilgan global investitsiyalar
mlrd. AQSh doll.⁴¹**

«Yashil iqtisodiyot»ni yaratish va rivojlantirishning jahon tajribasi ko‘rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalar talab etishi, asosiy e’tibor qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. McKinsey Global instituti mutaxassislari fikricha, «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samarasi tufayli jahon iqtisodiyotining energiya sig‘imkorligi 2050-yilga qadar 50%ga

⁴¹ <https://www.statista.com> rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qisqarishi, yaqin 20 yilda tabiiy resurslarni iste'mol qilish hajmining kamayishi hisobiga 0,9-1,6 trln. dollar mablag' tejalishi mumkin. McKinsey tadqiqotlariga ko'ra 2000-2015 yillarda xom-ashyo bozorida yirik sikl o'z nihoyasiga etgan. Xitoyda 2000-yillarning boshlarida ro'y bergan jadal sanoatlashish va urbanizatsiya jarayonlari tabiiy resurslarga bo'lgan talabning keskin o'sishiga olib keldi. 2015-yilda jahon mis iste'molining 40%i, temir va tosh ko'mir iste'molining esa 50%i Xitoy iqtisodiyoti hissasiga to'g'ri keldi. Xitoyning tabiiy resurslarga sarflagan xarajatlarining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6% dan oshib ketdi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan jami investitsiyalar tarkibida quyosh energiyasini o'zlashtirish yetakchi mavqega ega. Jumladan, 2015-yilda quyosh energiyasini o'zlashtirish uchun 161 mlrd. dollar (2014-yilga nisbatan 12% ga o'sgan) sarflangan va ushbu ko'rsatkich jami investitsiyalarning 56% ini tashkil etadi. Shamol energiyasini o'zlashtirish uchun esa 109,6 mlrd. doll. (jami investitsiyalarning 39%) sarflangan (2.2.2-rasm).




2.2.2-rasm. Muqobil energiya ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiyalar tarkibi, mlrd. AQSh doll.⁴²

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. UNEP ma'lumotlariga ko'ra,

⁴² Renewables 2016 Global Status Report. www.fs-unep-centre.org ma'lumotlari asosida tuzildi.

ushbu sohada bandlik darajasi 2015-yilda 2014-yilga nisbatan 5%ga ortib, bevosita va bilvosita yaratilgan ishchi o‘rinlari soni 8,1 milliontaga etgan. Quyosh va shamol energiyasini ishlab chiqarish sohasida jami yaratilgan ishchi o‘rinlarining 82%i to‘g‘ri keladi (2.2.3-rasm).



2.2.3-rasm. Muqobil energiya ishlab chiqarish sohasida yaratilgan ishchi o‘rinlari, ming kishi⁴³

Muqobil energiya ishlab chiqarish sohasi ayrim mamlakatlarda aholi bandligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etib, mazkur sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar oqimi va bandlik darajasi ortib bormoqda.

Masalan, investitsiyalar oqimi va bandlik darajasi Hindistonda quyosh energiyasi, Braziliyada esa shamol energiyasi ishlab chiqarish sohasida yuqori bo‘lmoqda. 2015-yilda Xitoyda quyosh energiyasi ishlab chiqarish sohasida 1,7 mln. va muqobil energiya moslamalarini o‘rnatish hisobidan esa 3,5 mln. ishchi o‘rni yaratildi.

Yer yuzida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasida samarali faoliyat olib borishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli kattadir. Dunyo davlatlarini o‘zaro muloqot, hamkorlik va hamjihatlikka chorlash, ularning kuch va imkoniyatlarini yaratuvchanlik yo‘lida birlashtirish, ya’ni eng dolzarb masalalarni bahamjihat hal qilish ushbu tashkilot

⁴³ Renewables 2016 Global Status Report. www.fs-unep-centre.org ma’lumotlari asosida tuzilgan.

tomonidan 2015-yilga qadar qabul qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlarida, 2016-yilda esa Barqaror rivojlanish maqsadlarida o‘z ifodasini topdi.

Dastavval, BMT haqida qisqacha ma’lumot. Ushbu xalqaro tashkilot boshqa yetakchi uyushmalardan farqli o‘laroq, fuqarolik xizmatiga ixtisoslashgani, a’zo davlatlarning xalqaro huquq sub’yekti sifatida tan olinishi, o‘z byudjetiga egaligi, vakolatlari doirasida xalqaro shartnomalar tuzish va majburiyatlarni zimmasiga olish kabi qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda dunyoda turli g‘oya va maqsadlar yo‘lida tuzilgan 2,5 mingdan ortiq xalqaro tashkilot mavjud bo‘lib, ular hududiyligi, ikki yoki ko‘p tomonlama hamkorlikka asoslangani bilan tavsiflansa-da, ammo hech biri bashar qismatini bog‘lagan million-million rishtalarini o‘zida birlashtira olmaydi.

Dunyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalash, ona sayyorani asrab qolish, xalqaro va millatlararo munosabatlarda hamjihatlikka erishish BMTning asosiy vazifalaridandir. Tashkilotning jahon siyosatidagi o‘rni haqida to‘xtalar ekanmiz, 2000-yil 6-8 sentabr kunlari Bosh Assambleyaning 55-maxsus sessiyasida Mingyillik deklaratsiyasi imzolangani, unda uchinchi mingyillik tamaddunining asosiy maqsadlari, ya’ni insoniyat taqdirida real ahamiyatga ega bo‘lgan sakkizta muhim masalaning qabul qilinganini alohida qayd etish joiz. Bular: haddan ortiq qashshoqlik va ocharchilikni bartaraf etish; yalpi boshlang‘ich ta’limga erishish; ayollar va erkaklar tengligini rag‘batlantirish hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish; bolalar o‘limini kamaytirish; onalar salomatligini yaxshilash; OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash olib borish; ekologik barqarorlikni ta’minalash; taraqqiyot maqsadlarida global sheriklikni shakllantirish va dastlabki bosqichda butun insoniyat 2015-yilgacha erishishi kerak bo‘lgan olamshumul ahamiyat kasb etgan taraqqiyot maqsadlaridir.

2000-yilda qabul qilingan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM), jahon hamjamiyati tomonidan butun dunyoda qashshoqlikni bartaraf etish yo‘lida misli ko‘rilmagan darajadagi sa’y-harakatlarga turtki bo‘ldi. Umuman

olganda, MRM ushbu maqsadga 2015-yilgacha bo‘lgan vaqt mobaynida erishish yo‘lida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq va lo‘nda chora-tadbirlar to‘plamini belgilab berdi. Ushbu maqsadlarning asosiy afzalligi ularning aniq mazmuni va ayni paytda belgilangan ko‘rsatkichlar yordamida kuzatib borish imkoniyatining mavjudligidadir, modomiki «belgilangan maqsadlarning aniq o‘lchamli bo‘lishi ushbu maqsadlarning amalda erishilishini ta’minlab beruvchi muhim omildir».

MRM doirasida butun dunyoda o‘ta qashshoqlikni bartaraf etish, boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, boshlang‘ich maktab darajasida gender tengligini ta’minlash, onalar va bolalar o‘limini kamaytirish, OIV-infeksiyasi tarqalishini to‘xtatish va bezgakdan o‘lim holatlarini qisqartirish, hamda sanitariyani yaxshilash imkoniyatlarini ta’minlash borasida e’tiborga molik natijalarga erishildi. Ammo, belgilangan maqsadlarga erishish darajasi turli mamlakatlarda va ayni mamlakatning turli hududlarida notekis kechdi. Dunyo mamlakatlari MRM doirasida erishilgan muvaffaqiyatlarni e’tirof etgan holda, MRM doirasida amalga oshirilishi yakunlanmay qolgan maqsadlarga erishish, hamda, jahon hamjamiyatini 2015-yildan so‘ng yangi rivojlanish jabhalari sari etaklovchi maksadlarni belgilab olish zaruriyatini ta’kidladilar. 2016-yildan BMT 2015-yilning 25-sentabri kuni Nyu-Yorkdagi sammitida BMTning 193ta a’zo davlatlari tomonidan qabul qilingan va 2030-yilgacha erishilishi lozim bo‘lgan 17 ta BRM va ularga bog‘liq bo‘lgan 169 vazifalarning aniqlanishiga olib keldi. Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini amalga oshirish 2016-yilning 1-yanvaridan boshlanib, 2030-yilning 1-dekabrida yakunlanishi lozim⁴⁴.

2.3. Rivojlangan mamlakatlar energetika tarmog‘ini «Yashillashtirish» tendensiyalari

Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda u yoki bu davlatning barqaror rivojlanishi uchun energetika tarmog‘ida qayta tiklanuvchi energiya

⁴⁴ <http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs>

manbalaridan foydalanish salmog‘iga uzviy bog‘liq bo‘lib qolishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois ushbu sohaning qonunchilik bazasini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Chunki aynan shu yo‘l orqali ushbu soha munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solinadi va uning rivoji ta’minlanadi.

Tahlillarga qaraganda, hozirgacha 80ga yaqin mamlakatda muqobil energiya manbalari sohasida milliy qonunchilik yaratilgan. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikda mazkur sohada Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Daniya, Estoniya, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Irlandiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya, Portugaliya, Singapur, Shvetsiya, Shveysariya, AQSH, Hindiston va Mongoliya kabi mamlakatlarda tegishli qonunlar qabul qilingan hamda amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda qonun yo‘li bilan davlat, biznes va nodavlat sektor e’tiborini mazkur sohaga qaratish, muqobil energiya manbalarining rivoji uchun davlat tomonidan rag‘batlantiruvchi choralarni ko‘rish, subsidiyalar siyosatini qo‘llashga nisbatan munosabat shakllangan. 50 dan ortiq davlat qonunchiligida rag‘batlantirish va subsidiya aks ettirilgan. Masalan, Xitoyda qabul qilingan huquqiy hujjatlarga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbani, xususan, quyosh va shamol energiyasidan olinadigan elektr manbaini umummilliyligi elektr tamroqlariga ulash nazarda tutilgan. Bu davlatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida bir qator imtiyozlar belgilangan. 2020-yilga borib bu yerda mazkur manbadan olinadigan energiya hajmi 15 foizga yetkazilishi mo‘ljallangan.

Biz bugungi kunda global qayta tiklanuvchi energiya inqilobining markazida turibmiz. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga kiritilgan investitsiyalar yil sayin ko‘payib borayotganligi, asosan rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan olib borilganligi va 2004-yildan buyon dunyoda yashil energiya manbalariga 2,9 trln. AQSh doll. miqdorida sarmoya kiritildi. Qayta tiklanuvchi energiyaga kiritilgan investitsiyalarning yillik global hisoboti global

energiya xaritasidagi o‘zgarishlarni va sayyoramiz kelajagini ta’minlashdagi yo‘lni tasvirlaydi.⁴⁵

Muqobil energiya manbalari bo‘yicha xalqaro qonunchilik tajribasi haqida gapirganda Yevropa Ittifoqida bu boradagi amaliyotga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Zero, bu mintaqada mazkur sohada yetarlicha tajriba to‘plangan bo‘lib, bunday manbalarni rivojlantirish mintaqqa energetika siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Xususan, ushbu ittifoqning strategik hujjatida mintaqada 2010-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbaining hissasi 12 foizdan past bo‘lmasligi belgilangan edi. Hozir bu ko‘rsatkich salkam 13 foizni tashkil etmoqda. 2001-yilda qabul qilingan hujjatlarda qayta tiklanuvchi manbalar yordamida olinadigan elektr energiyasining ulushi 2020-yilga borib 20 foizga etkazish nazarda tutilgan. 2004-yilda hayotga tatbiq etila boshlangan boshqa bir hujjatda bioyoqilg‘i hajmini anchaga oshirish belgilangan.

«Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shuning uchun avvalo, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo‘llanilayotgan rag‘batlantiruvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, iqtisodiy tizimni «Yashillashtirish» jarayoni yanada tezlashadi. «Yashil iqtisodiyot»ni yaratish va rivojlantirishning jahon tajribasi ko‘rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddat, katta miqdorda investitsiyalar talab etishi, asosiy e’tibor qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, enegriyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Umuman, muqobil energiya manbai sohasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash usullari turli bo‘lib, bunday energiya manbai asosida vujudga kelgan

⁴⁵This report was jointly prepared by UN Environment’s Economy Division, Frankfurt School-UNEP Collaborating Centre for Climate & Sustainable Energy Finance, and Bloomberg New Energy Finance. Erik Solheim, Patricia Espinosa and Nils Stieglitz

elektr energiyasini sotish uchun imtiyozli tariflar dunyoning 50 dan ziyod davlatida joriy etilgan. Maxsus «Yashil» sertifikatlardan foydalanish, ya’ni qayta tiklanuvchi energiya manbai orqali hosil qilingan energiyani yuqori narxda oluvchi iste’molchilarga sotish jarayoni Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polshada amal qiladi. Bu boradagi soliq imtiyozlari Malta, Finlyandiya, Kipr, Buyuk Britaniya, Chexiyada tatbiq etilgan. Bundan tashqari, imtiyozli kreditlar, sohada ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchilarni hamda turli xil uskuna, qurilmalarni ishlab chiqaruvchilarini qo’llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, namunaviy loyihalarni namoyish etgan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida jamoatchilik o’rtasida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishni rag’batlantirish kabi jarayonlarga qaratilgan alohida yondashuv va e’tiborni jahon tajribasida ko‘p kuzatish mumkin.


2015-yilning oxiriga kelib, Ming yillik rivojlanish maqsadlari o’rniga BMTning Bosh Assambleyasi Sammitida Barqaror rivojlanish maqsadlari ishlab chiqildi. Uning asosiy yo’nalishlaridan biri qayta tiklanadigan quvvat manbalaridan foydalanish edi. 2008-yilga kelib, 43 ta mamlakat qayta tiklanadigan quvvat manbalariga o’tish rejasini ishlab chiqishdi. 2010-yilda esa ilk marotaba shamol trubinalari, bioyoqilg‘i zavodlari, quyosh batareyalari ishlab chiqaradigan quvvat 381 GVt (Gigavatt) ga etib, yadroviy elektrostansiyalar quvvatidan oshib ketdi. Bugungi kunda dunyodagi barcha elektrostansiyalarning quvvati 3,54 TVt (Teravatt)ni tashkil etadi. Demak, tiklanadigan quvvatni ishlab chiqradigan elektrostansiyalar barcha elektr stansiyalar ishlab chiqaradigan quvvatning 10 foizinigina ishlab chiqarishadi⁴⁶.

2011-yilning dekabr oyida Yevropa qo‘mitasi 2050-yilgacha mo’ljallangan «2050-yilning energetik yo’l xaritasi»ni ishlab chiqdi. Unga ko‘ra 2050-yilga kelib havoga chiqarilayotgan karbonot angidrid miqdori 1990-yilga nisbatan 80%ga kamaytirilishi, qayta tiklanadigan quvvat manbaini ishlab chiqaradigan elektr quvvatidan 75% ga foydalanish rejasi belgilangandi. Mazkur hujjatning

⁴⁶ Плеханов С.И. Солнце – это жизнь, а не батарейка. Химия и жизнь, №8 2012, стр.2-5

kuchga kirishi bugungi kunda Yevropada shamol, quyosh quvvatidan, shuningdek bioyoqilg‘idan samarali foydalanishga va ularni ishlab chiqarilishining arzonlashuviga olib keldi⁴⁷.

Keyingi 5 yil mobaynida ushbu ko‘rsatkich asta-sekinlik bilan ko‘tarilib borib, 2010-yilda sezilarli “sakrash”ni amalga oshirdi va 2009-yilga nisbatan qariiyb 1,6 barobarga oshdi, 103,3 mlrd. AQSh dollari demakdir. Bir yil o‘tib 1,5 barobardan ortiq o‘sishga erishib, 2012-yildan 2014-yilgacha pasayish holatini aks ettirdi. 14 yil davomidagi quyosh energiyasi texnologiyalariga yo‘naltirilgan global investitsiyalarning eng yuqori ko‘rsatkich 2015-yili kuzatildi, ya’ni 179,3 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etdi. 2017-yilda quyosh energiyasi texnologiyalariga yo‘naltirilgan global investitsiyalar 160,8 mlrd. AQSh dollarini hamda bioyoqilg‘i energiyasi texnologiyalariga kiritilgan global investitsiyalar 2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi (2.3.1-rasm).




2.3.1-rasm. 2004-2017 yillar davomida quyosh va bioyoqilg‘i energiyasi texnologiyalariga kiritilgan global investitsiyalar mlrd. AQSh doll.⁴⁸

⁴⁷Планы Евросоюза по модернизации энергетики на период до 2050г. <http://portalenrgo.ru/articles/details/id/507>

⁴⁸<https://www.statista.com> rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tuzildi.

Barchamizga ma'lumki, AQSh dunyodagi iqtisodiy jihatdan qudratli va turli sohalarda yuqori rivojlanish dinamikasiga ega bo'lgan davlat. 2017-yilda AQSh hududida ishlab chiqarilgan elektr energiyaning eng katta ulushi tabiiy gaz bilan bog'liq bo'ldi, ya'ni 32%. Ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 30%i esa ko'mir sohasiga to'g'ri kelmoqda. 2017-yilda elektr energiyaning beshdan bir qismi yadroviy tarmoqdan olingani ham ma'lum bo'ldi. Rivojlangan yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq hozirda Amerika Qo'shma Shtatlarida elektr energiyaning 17%i qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingen bo'lib, 1%ni neft xom ashyosi ulushiga to'g'ri keldi, buni quyida keltirilgan rasmda ko'rshimiz mumkin (2.3.2-rasm).




2.3.2-rasm. 2017-yilda AQSh elektr energiya ishlab chiqarish manbalarining yillik ulushi, foizda.⁴⁹

Quyida keltirilgan rasmdan ma'lumki, 2016-yilda Norvegiya yevropa mamlakatlari orasida gidroenergetika energiyasidan eng ko'p foydalanuvchi davlat bo'ldi, ya'ni yil mobaynidagi iste'mol hajmi 32,4 mln t.n.e.ni tashkil etdi. Amerika va Osiyo qit`asi davlatlari bu rasmda yuqori o'rirlarni qayd etishdi.

⁴⁹ U.S. Energy Information Administration. Electric Power Monthly. February 2018, preliminary data ma'lumotlari asosida tuzildi.

Xitoy 263,1 mln t.n.e. ko'rsatkichini qayd etgan holda yetakchilik qilmoqda hamda o'zidan keyingi 2 mamlakatdan sal kam 3 barobar ko'proqni tashkil etdi. 2-o'rinni Kanada 87,8, 3-o'rinni Braziliya 86,9 va 4-o'rinni AQSh 59,2 bilan egalladi. Grafikdagi eng past natija Italiyaga tegishli bo'lib, 9,3 mln t.n.e.ga teng bo'lган гидроэнергетика энергиясидан фойдалangan (2.3.3-rasm).




2.3.3-rasm. Gidroenergetika energiyasi iste'moli bo'yicha yetakchi mamlakatlar, 2016-y, mln. t.n.e.⁵⁰

Quyida keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, Amerika Qo'shma Shtatlarida 17 yil davomida quyoshning qayta tiklanuvchi energiya

⁵⁰ <https://www.statista.com> rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.


manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan energiya hajmi yuqori natijaga erishdi. Rasmida so‘nggi olti yil ichida misli ko‘rilmagan darajada o‘sishni qayd etdi. 2000-yilda umumiy elektr energiya hajmi 493 mln. kv/soatni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda past darajada o‘sdi, 2001-yilda 543, 2002-yilda 555, 2003-yilda 534 mln. kv/soatni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2010-yilga kelib bir milliarddan oshib ketib, 1212 mln. kv/soatni qayd etdi. Jahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozi boshlangandan 4 yil o‘tib, quyoshdan olingan umumiy elektr energiya hajmi 2012-yilda 4327 mln. kv/soatni tashkil etdi, bu esa 2011-yilga nisbatan uch barobar ko‘p (1818) demakdir. 2017-yilda yuqoridagi ko‘rsatkich 52958 mln kv/soatni qayd etdi (2.3.4-rasm).



2.3.4-rasm. AQShda 2000-2017 yillar davomida quyoshdan olingan umumiy elektr energiya hajmi, mln. kilovat/soat⁵¹

⁵¹ <https://www.statista.com> rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tuzildi.

Quyida keltirilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2016-yilda eng ko‘p ishlab chiqarilgan bioyoqilg‘i hajmi Amerika Qo‘shma Shtatlariga to‘g‘ri keldi 35779 mln. tonna neft ekvivalenti. Undan keyingi o‘rinni Braziliya mamlakati 18552 mln. t.n.e. bilan egallab turibdi. 3-o‘rinni Germaniya federativ respublikasi egalladi 3198 mln. tonna neft ekvivalentiga teng. Argentina 2828 mln. t.n.e. qayd etgan holda Indoneziyadan (2503) yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Dunyoda iqtisodiyoti qizib ketishidan katta zarar ko‘rgan davlatlar qatorida bo‘lgan Xitoy 2016-yilda 2053 mln. tonna neft ekvivalentiga teng bo‘lgan bioyoqilg‘ini ishlab chiqardi. Eng past ko‘rsatkichni Kanada qayd etdi, ya’ni 1160 mln. t.n.e. (2.3.5-rasm).



2.3.5-rasm. Bioyoqilg‘i ishlab chiqaruvchi Top-10 davlatlar, 2016-y, mln. t.n.e.ga teng⁵²

⁵² <https://www.statista.com> rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tuzildi.

2-BOB bo‘yicha xulosa

«Yashil iqtisodiyot» mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda «Yashil iqtisodiyot» tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa «Yashil iqtisodiyot» – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish, uning asosini sof yoki «Yashil» texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya – bu atrof-muhit energiya oqimidan olinadigan energiya manbaidir. Bularga quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, sanoat va munitsipal, qishloq xo‘jalik chiqindilaridan olingan biogaz kiradi. Muqobil energiya manbalari shaharlarda birlamchi uglevodorod resurslarini tejash, mamlakat energetika xavfsizligini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Fikrimcha, yaqin kelajakda u yoki bu davlatning barqaror rivojlanishi uchun energetika tarmog‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salmog‘iga uzviy bog‘liq bo‘lib qolishi ehtimoldan xoli emas.

«Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shuning uchun avvalo, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolarning salbiy oqibatlari sharoitida «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirishga ob‘yektiv ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkonini beradi.

3-BOB. O'ZBEKISTONDA «YASHIL IQTISODIYOT»NI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

3.1. O'zbekistonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llari va unga ta'sir etuvchi omillar

Milliy ishlab chiqarish va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili bo'lib hisoblanishini bugungi kunda hech kimga sir emas.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o'tish izchil tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, «sof texnologiyalar»ga nisbatan innovatsion yondashish, «Yashil iqtisodiyot»ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumot berishicha, O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 2018-yil yanvar-mart oylarida 7,9 milliard AQSH dollarini, shu jumladan, eksport 4,1 milliard AQSH dollarini va import 3,8 milliard AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi saldosi minus 249,4 million AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport tarkibida energiya manbalari va neft mahsulotlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,4 foizga o'sishi tabiiy gazning 2,3 martaga oshgani hisobiga to'g'ri kelmoqda. Mashina va asbob-uskunalar esa 35,4 foizga o'sdi, shundan qozonlar, uskunalar va mexanik asboblar va ular qismlari 24,6

foizga, transformator va akkumulyatorlar 68,6 foizga, monitor va proektorlar 3,3 martaga oshdi.

Bug'doy eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,6 foizga va meva-sabzavot mahsulotlarining 51,7 foizga o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmining 49,9 foizga o'sishiga olib keldi.⁵³

Vaqti-vaqt bilan takrorlanayotgan global iqtisodiy inqirozlar sabablarini tahlil qilish asnosida xulosa chiqargan ayrim olimlarning fikr-mulohazalarida muayyan mantiq mavjud. Ya'ni, halokatli inqirozdan chiqish yo'lini topish jahon hamjamiyatini zamonaviy texnologiyalarning prinsipial jihatdan yangi avlodini o'zlashtirishga, boshqacha aytganda, ishlab chiqarishning yanada jadal va tejamkor o'sish sur'atlarini ta'minlaydigan ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi bosqichiga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin shu paytgacha biror tashkilot mamlakatimizga kirib kelayotgan mahsulotlar importini tahlil qilmagani, ushbu sohada nazorat o'z holiga tashlab qo'yilgani ayon bo'ladi.

Jumladan, 2017 yilda importni qisqartirish rejasi 88 foizga bajarilgani yana bir bor qayd etildi. Misol uchun, bir yilda 20 million dollarlik kir yuvish kukuni, 13 million dollarlik atir sovun, 49 million dollarlik qurilishda ishlatiladigan va sintetik bo'yoqlar, 23 million dollarlik shokolad import qilingan.

Bu o'rinda so'z bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini qayta tiklashga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablardan biri – an'anaviy energiya resurslari, avvalambor, neft narxining asossiz ravishda yuqori bo'lib qolayotgani haqida bormoqda. Iqtisodiy jihatdan samarali fotoelektr energiyasi manbalarini ommaviy ravishda joriy etish istiqbolda neft narxini optimallashtirish imkonini beradi. O'zbekistonda ishlab chiqarishga, resurslarni tejashga omil bo'ladigan

⁵³ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

«yashil» me’yorlarning keng joriy etilishi mahsulotlarimizni tashqi bozorlarga chiqarishga yurtimiz eksport salohiyatining raqobatbardoshligi barqarorligini ta’minlashga zamin yaratadi. Shu maqsadda mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda, ko‘plab istiqbolli loyihamalga oshirilmoqda. Bu esa o‘zining cheklangan valyuta zahiralarini uglevodorod xomashyosini chetdan sotib olish uchun sarflashga majbur bo‘layotgan rivojlanayotgan mamlakatlarni jadal taraqqiy ettirish borasida rag‘batlantiruvchi vosita bo‘ladi. Shunday ekan, quyosh energetikasi inqirozdan chiqishda lokomotiv vazifasini bajaradigan omillardan biri bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda energetika maqsadlari uchun quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va bu jarayonlarning ko‘lamini va amaliy yo‘nalishlarini kengaytirishni taqozo etadigan omillar: mamlakatimizda barqaror yuqori o‘sish sur’atlari ta’milanayotgani, shuningdek, amalga oshirilayotgan tarkibiy tub o‘zgarishlar, iqtisodiyotni diversifikasiya va modernizatsiya qilish, sanoatning jadal rivojlanishi, neft-gaz va boshqa xomashyo resurslarini chuqur qayta ishslash bo‘yicha eng ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan zamонавиy hamda qudratli gaz-kimyo kompleksini shakllantirish bilan bog‘liq.

Bu borada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’siriga qaramasdan, O‘zbekistonda so‘nggi 10 yil davomida yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’ati 7-8,5 foiz oralig‘ida tashkil etayotganini ta’kidlash lozim. 2000-2013 yillarda bu ko‘rsatkich 3,8 barobar, yalpi mahsulot esa aholi jon boshiga 3,2 barobar o‘sdi. Xalqaro moliya institutlarining baholariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotining bunday yuqori o‘sish sur’atlari yaqin istiqbolda ham saqlanib qoladi.

2017-yil 14-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni «2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilash» bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida 2016-2017 yil kuz-qish mavsumida energoresurslarni tejash

bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, 1210,3 million kVt.saat elektr energiyasi va 991,2 million kub metr tabiiy gazni iqtisod qilishga erishildi, bu esa tarmoqlarning 2016-yildagi iste’molining mos ravishda 5,1 va 3,6 foizini tashkil etadi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2015-yilda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini 10,8 foizga, 2016-yilda 7,2 foizga va 2017-yilning birinchi choragida 12,7 foizga qisqarishiga erishildi.⁵⁴

2030-yilga borib 2016-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini ikki barobarga qisqartirish bo‘yicha qo‘yilgan topshiriqlarni hisobga olgan holda, korxona va tashkilotlarga energiya sarfi hajmini qisqartirish bo‘yicha aniq maqsadli parametrlarni belgilash zarurati mavjud.

Ushbu muhim vazifalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2017-2021 yillarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanishni kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ikkita vazifani hal etish orqali ta’minlanishi nazarda tutilmoqda. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg‘i balansini diversifikatsiyalash imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Bunda an’anaviy yoqilg‘i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga ularning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish nazarda tutilmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig‘imini qisqartirishning uzoq muddatli dasturini amalga oshirish, sanoat faoliyati hududlarining ekologik holatini yaxshilash orqali erishiladi.

Yaqin istiqbolda ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya va resurs sig‘imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiyani tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, mehnat samaradorligini oshirish ko‘zda tutilmoqda.

⁵⁴ http://www.aza.uz/uz/documents/yillarda-qayta-tiklanuvchi-energetikani-yanada-riv-29-05-2017?phrase_id=2573432

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan jadal foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish issiqlik va elektr energiyasi kabi energiyaning sanoat turlarini olishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu uglevodorodlarning o'rnini bosishga va ularni yuqori likvidli mahsulotlar, xususan, polimerlar, yoqilg'ining sintetik turlarini ishlab chiqarishga yo'naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston geografik o'rni va iqlim sharoitlariga ko'ra buning uchun g'oyat qulay imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda havo bir yilda taxminan 300 kundan ziyod ochiq bo'lib, mamlakatimiz yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi bo'yicha dunyoning aksariyat mintaqalariga nisbatan ustunlikka ega. Osiyo taraqqiyot banki va jahon banki xulosalariga ko'ra, O'zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati 51 milliard tonna neft ekvivalentidan ortiqdir.

Ana shu resurslar hisobidan, ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakatimizda joriy yilda iste'mol qilinadigan elektr energiyasidan 40 barobar ko'p hajmdagi elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin.

Mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 1980-yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Osiyo mintaqasida yagona va ilmiy ishlanmalari yurtimizdan tashqarida ham mashhur bo'lgan «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy-eksperimental markazi tashkil etilganidan keyin jadal rivojlana boshladi.

O'zbekiston bugungi kunda ilmiy-texnik, eksperiment o'tkazadigan kadrlar bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda quyosh energiyasini loyihalashtirish va undan foydalanish bo'yicha katta hajmdagi konstruktorlik va texnologik ishlanmalar to'plagan.

O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan elektrenergiyasining katta qismi (87%) issiqlik elektrostantsiyalarida ishlab chiqariladi. Bunda energiya iste'moli tarkibining o'zagini neft va gaz resurslari tashkil etadi.

Mamlakatimizda Umumjahon banki guruhi kreditlari hisobidan sanoatda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qiymati 125 mln. dollarga teng investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohaga yo'naltirilayotgan

investitsiyalar energetika tizimlarini yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirishga sarflanmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonning an’anaviy elektrenergetika sektorida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi 2030-yilga qadar 6,85 mln. tonna neft ekvivalentiga teng miqdorda tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi.

Mustaqillik sharofati bilan bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ekologik barqarorlikni kafolatlash mexanizmlari samarali tatbiq etildi. Sohaga oid o‘ttizga yaqin qonun va 150 ga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan atrof-muhitni muhofaza etish sohasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Jumladan, O‘zbekiston Rio deklaratsiyasini imzoladi, iqlim o‘zgarishlari to‘g‘risidagi Hadli konvensiyasiga doir Kioto protokoli, cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha BMT konvensiyasi, Biologik rang-baranglik to‘g‘risidagi Konvensiya, Bazel, Bonn va Ramsar konvensiyalari, Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya singari ekologik yo‘nalishdagi ko‘plab xalqaro shartnomalarga qo‘sildi. Mazkur konvensiyalarda yuklatilgan majburiyatlarni bajarish yuzasidan salmoqli natijalarga erishildi. Inson salomatligiga xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda atrof-muhit holati yaxshilanib, ekotizim barqarorlashdi. Bundan tashqari, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish ishlari samarali amalga oshirilmoqda. Atmosferaga ifoslantiruvchi chiqindilarni chiqarish, zaharli oqova suvlar bir necha barobar kamaydi. Paxta o‘rniga boshoqli, dukkakli, sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari maydoni miqdori oshdi. Milliy qo‘riqxona, bog‘, buyurtma qo‘riqxona va ekologik markazlar faoliyati rivojlantirildi.

Ta’kidlash o‘rinliki, mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarishning energiya sig‘imini qisqartirish, ilmiy-texnikaviy ishlanmalar, yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta’minlashni yaxshilash, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini Yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’minlashni yaxshilash va sinovdan o‘tgan xalqaro energotejamkor ilg‘or texnologiyalar tadqiqotlarini amaliyatga maqsadli joriy etish borasida belgilangan muhim yo‘nalishlarni ro‘yobga chiqarish mamlakatimizda tashqi va ichki ta’sirga barqaror milliy energetika tizimini yaratish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasiga, mavjud ekologik muammolar yechimini topishga jamoatchilikning keng jalb etilayotgani alohida e’tirofga loyiq. Xususan, O‘zbekiston ekologik harakati tabiat muhofazasini yanada yaxshilash, uning resurslaridan to‘g‘ri foydalanishga yo‘naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirishga jamiyatning barcha sa’y-harakatlarini yo‘naltirishga intilmoqda. Mazkur harakat ayni yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan 200dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlarini jipslashtirgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ekologik harakati deputatlar guruhi a’zolari quyi palatadagi barcha qo‘mitalar tarkibidan o‘rin olib, qonun ijodkorligi hamda nazorat-tahlil faoliyatini amalga oshirmoqda. Ular tomonidan qonunchilik tashabbuskorligi asosida O‘zbekiston Respublikasining tabiiy resurslarni asrab-avaylashga yo‘naltirilgan bir qator qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish ustida ish olib borilayotir.

Umuman olganda, aholi sog‘lom va munosib hayot kechirishining muhim omili— ekologik barqarorlikni kafolatlash, tabiiy resurslarning barcha majmuini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni so‘zsiz ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish doimiy ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, dunyoda ekologik barqarorlik nainki tabiat,

balki insoniyatning hayot-mamot masalasiga aylanib borayotgan ayni paytda atrof-muhit muhofazasini yaxshilashga dolzarb vazifa sifatida qarash, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun ham mas’ul ekanimizni unutmaslik darkor.

O’zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun izchil institutsional va tashkiliy choralar ko‘rilmoxda. Aytish joizki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan hamda tegishli xalqaro normalarga mos huquqiy baza yaratilgan. Mamlakatimiz BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot sohasidagi eng muhim konvensiyalari hamda boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilib, zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarib kelmoqda. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, maqsadli davlat dasturlari, milliy harakat rejali hayotga tatbiq etilayotir. O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim qismi bo‘lgan ushbu xayrli ishlarda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda.

1992-yili Rio-de Janeyroda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyani tashkil etdi. Unda ikkita asosiy hujjat – «Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi» va «XXI asr uchun kun tartibi», shuningdek ikkita global ekologik konvensiyalar » iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiya» va «Bio xilma-xillik bo‘yicha konvensiya» qabul qilindi. Bundan tashqari konferensiya hujjatlarining bajarilishini nazorat qiluvchi BMTning barqaror rivojlanish bo‘yicha Qo‘mitani tashkil etish borasida qaror qabul qilindi. Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasida rivojlanish asosini albatta atrof-muhit muhofazasi tashkil etishi zarurligi qayd etildi. «XXI asr uchun kun tartibi»da esa umumiy strategik reja namoyish etilib, unda barqaror rivojlanish g‘oyalari aniq xalqaro va milliy majburiatlarga kiritildi⁵⁵.

Har bir mamlakatga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rejalar asosida barqaror rivojlanishning milliy strategiyasini ishlab chiqish tavsiya etildi. Strategianing asosiy maqsadlaridan biri kelajak avlod manfaatlaridan kelib chiqqan holda atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish edi.

⁵⁵ <http://www.un.org/russian/documen/declarat/riodecl.htm>;

2000-yili Ming yillik sammitida jahonning etakchi davlatlari BMTning Mingyillik Deklaratsiyasini qabul qilib, unda Mingyillik rivojlanish maqsadlari belgilab berilgandi. Maqsadlarning biri ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'lib unda:

- 2010-yili biologik xilma-xillikning yo'qolishini kamaytirish;
- 2015-yili toza ichimlik suv iste'molidan mahrum bo'lgan aholi sonini ikki barobarga kamaytirish;
- 2020-yili 100 million nafar qashshoqlikda kun kechiruvchi aholi hayotining farovonligini oshirish ko'zda tutilgan edi. 2002-yili Yoxannesburgda (VSUR 2002) Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan Butunjahon sammitida «Siyosiy deklaratsiya» va «Barqaror rivojlanish bo'yicha oliv darajada Butunjahon uchrashuvlar qarorlarini bajarilish rejası» qabul qilindi. Siyosiy deklaratsiyada yana bir marotaba barqaror rivojlanishga sodiqlik qayd etildi⁵⁶.

Ushbu hujjatda millionlab odamlarning toza ichimlik suviga va elektr quvvatiga bo'lган ehtiyojini qondirish, 2015-yilga qadar qashshoqlik darajasini 50 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan edi. Shuningdek reja foydali qazilma boyliklarga ajratiladigan subsidiyalarrni kamaytirish belgilangan. Rasmiy hujjatlarga ko'ra barqaror rivojlanishga amaliy o'tish. Aynan Reja jahon hamjamiyatining barqaror taraqqiyot yo'lidagi harakatini tartibga solib, belgilab berdi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra barqaror taraqqiyotga o'tishni boshlash 2005-yildan amalga oshirilishi lozim edi⁵⁷. 2012-yili BMT Konferensiyasi o'tkazilganiga 20 yil to'ldi.

BMTning atrof-muhit muhofazasi bo'yicha Dasturi (UNEP) belgilangan rejaning 90 ta punktidan faqatgina 4 ta punkti amalga oshirilganligini qayd etdi. Bu Rejaning barbod bo'lganligini ko'rsatdi. Iqlim o'zgarishi Rejaga asosan to'xtatilmagan, dengiz suvining ishqorlik darjasini pasaymagan, aksincha ko'tarilgan bo'lib, undagi jonivorlarning qirilishiga sabab bo'layotgan, biologik xilma xillik yo'qolayotganligi, o'rmon kesilishi 4 barobar ko'payganligi

⁵⁶ World Summit on Sustainable Development. Plan of implementation Johannesburg. 2002.

⁵⁷ Перелет Р.А. Переход к эре устойчивого развития./Россия в окружающем мире: 2003 (Аналитический ежегодник). – М.: Изд-во МНЭПУ, стр. 10-30, 2003

ma’ruzada qayd etildi⁵⁸. Mazkur muammolarni hal etish va barqaror rivojlanishga o’tish uchun biosferaning ekologik salohiyatidan o‘ylab, reja asosida, unga zarar etkazmagan holda foydalanish lozim. Zero bugungi kunda biosferadan foydalanish ko‘lami nafaqat milliy hududlarni, balki davlatlararo makonni qamrab olgan.

Ekologik tanazzulning kelib chiqishiga asosiy sabab esa iqtisodiy o’sish va jamiyatning iste’molchilik salohiyatining oshganligidir. Yana bir muammo, hanuz jahon hamjamiyati global biosferadan foydalanishning huquqiy maqomini belgilagani yo‘q. Insoniyatning umumiy boyligi bo‘lgan tabiatdan oqilona foydalanishning yakdil mexanizmi ishlab chiqilmadi. Yer shari zahiralaridan foydalanishning aniq hisobi olib borilmayapti. Yerning biosfera qobig‘idan faqatgina eng rivojlangan davlatlargina foydalanishmoqda. G‘arb mamlkatlari va AQSH global ekologik salohiyatdan foydalanishdagi yuqori ulushidan voz kechgilari yo‘q. Yer zahiralaridan foydalanish huquqi, erkinligi va majburiyatlarini ishlab chiqish vaqtি keldi. Bu esa ularning degradatsiyasi va talon-taroj bo‘lishiga olib kelmoqda. Agarda atrofga boqsangiz dunyo barqaror rivojlanishga teskari ravishda harakat qilmoqda. Inson farovonligini ekologik inqiroz hisobiga oshirish yaqin kelajakda o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatishi aniq. Uning yagona yo‘li ekologik iqtisod yoki «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tishdir. Buni UNEP bir necha marotaba o‘z ma’ruzalarida qayd etgan edi. «Yashil iqtisodiyot» bu quvvatni tejovchi buyumlarni ishlab chiqarish, muqobil energiyadan foydalanish, atmosferaga zaharli gazlarni chiqarmaydigan, elektr quvvati bilan yuradigan transportdan foydalanish, suvni tejash, tuproq unumdarligini oshirishda kimyoviy moddalardan foydalanmaslik va hokazo. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra bugungi kundagi mavjud ekotexnologiyalardan samarali foydalanilsa elektr quvvatini 2 barobar, 2025-yilga kelib avtomobillar tomonidan yoqiladigan yonilg‘ini 50 foizga mumkin⁵⁹.

⁵⁸ «Geo-5» (Глобальная экологическая перспектива), «Резюме для политиков и лиц, принимающих решения», 24 стр., 2012.

⁵⁹ UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, (предварительный вариант), <http://www.unep.org/greenconomy>

2012-yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror taraqqiyot bo'yicha «Rio +20» nomini olgan KonferensiYasi bo'lib o'tdi. Sammit ochilishida so'zga chiqar ekan, BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun insoniyat yangi davrga qadam quyayotganligini qayd etdi. U 2040-yilga borib yer sharining aholisi 9 mlrd.ga ko'payishini hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eski modeli o'z ahamiyatini yo'qotganligini ta'kidladi. Ma'ruzada 2030-yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji 50 foizga, elektr quvvatiga 45 foizga, suv zahiralariga esa 30 foizga o'sishi ta'kidlandi. Buni amalga oshirish uchun esa zudlik bilan «Yashil iqtisodiyot»ni joriy etish zarur, dedi Pan Gi Mun. Bugungi kunda «Yashil iqtisodiyot»ga bosqichma-bosqich AQSH, janubiy Koreya, Germaniya, Shvetsiya, Daniya, Gollandiya va boshqa rivojlangan mamlkatlar o'tmoqda. 2015-yilning oxiriga kelib, Ming yillik rivojlanish maqsadlari o'rniga BMTning Bosh Assambleyasi Sammitida Barqaror rivojlanish maqsadlari ishlab chiqildi.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish muammolarini kompleks tahlil etish qator xulosalar qilish imkonini beradi:

- «Yashil iqtisodiyot» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi asosiy muammo «Yashil iqtisodiyot» tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikaga qo'shimcha investitsiyalar kiritish yoki "yashil" o'sish sifatida soddalashtirish hisoblanadi. «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish zarurligini ilmiy asoslash o'ta murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyanı tushunarli, sodda tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;

- «Yashil iqtisodiyot» barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, «Yashil iqtisodiyot» barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;
- «Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi;
- milliy iqtisodiyotning energiya sig‘imkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiyalash, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish yordamida pasaytirib borish lozim;
- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish zarur.

3.2. O‘zbekistonda muqobil energiyadan foydalanish samaradorligi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash istiqbollari

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan’anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish er osti boyliklari zahiralarini tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilyapti.

Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda u yoki bu davlatning barqaror rivojlanishi uchun energetika tarmog‘ida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salmog‘iga uzviy bog‘liq bo‘lib qolishi ehtimoldan xoli emas.

Shularni inobatga olgan holda so‘nggi yillarda respublikamizning sanoat tarmoqlariga «Yashil iqtisodiyot» tizimini joriy qilish, ijtimoiy sohasida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan

foydalanimishni kengaytirish, innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanimish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2013-yil 1-martdagi Farmoni va “2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi 2015-yil 5-maydagi qarori bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jonlantirishga turtki bo‘ldi. Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlar energiyani iste’mol qilish sohasidagi qator muammolarni hal qilish, shuningdek, noan’anaviy energetika resurslaridan, jumladan, quyosh energiyasidan foydalanimish borasida yangi imkoniyatlarni ochdi. Buning samarasi o‘laroq, mamlakatimizda energiya samaradorligi va energyaning qayta tiklanuvchi manbalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi tashkil etildi, Toshkent shahrida Quyosh energiyasi xalqaro instituti faoliyat ko‘rsata boshladi hamda Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida O‘zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirishning “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tardi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu hujjat 2017-2021 yillarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanimishni kengaytirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatga ega. Unga ko‘ra yaqin istiqbolda ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya va resurs sig‘imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiyani tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta

tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, mehnat samaradorligini oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Qarorga asosan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Fan va texnologiyalar agentligi, “O‘zbekgidroenergo” AJ, Quyosh energiyasi xalqaro instituti, “O‘zbekenergo” AJ Ilmiy-texnik markazi kabi tuzilmalar ishtirokida qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanish, jumladan, quyosh energetikasini rivojlantirish, energiya samaradorligi sohasidagi mahalliy ishlanmalar va amaliy tadqiqotlarni, shuningdek, sinovdan o‘tgan ilg‘or xorijiy texnologiyalarni transfer qilish imkoniyatini tahlil qilish asosida iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini maqsadli joriy qilish va quyosh energetikasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Bu, albatta, sohada keng ko‘lamli va istiqbolli loyihalarning amalga oshirilishida muhim omil bo‘ladi.

Xususan, qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlariga asosan 2025-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga etkazish ko‘zda tutilmoqda. Bunda gidroelektrostantsiyalar ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi 2,3 foizga hamda shamol energetikasi 1,6 foizga etkazish rejalashtirilgan.⁶⁰

Shu bilan birga, qarorga asosan 2017-2025 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo‘yicha umumiy qiymati 5,3 milliard dollar bo‘lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Qolaversa, ijtimoiy soha va agrar sektor ob’ektlarida zamonaviy energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hisobidan 56,5 million kub metrdan ortiq tabiiy gaz hamda 807,3 million kVt.saatdan ortiqroq elektr energiyasini tejab qolishga erishiladi.

Ekspertlar fikriga ko‘ra, 2025-yilga qadar O‘zbekistonda muqobil energiya manbai 12,7%dan 19,7%ga yetishi kerak. Muqobil energiya tarkibida

⁶⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga Sharh

quyosh energiyasi ulushi 2,3%ga, shamol energiyasi ulushi— 1,6% ga yetadi. Shuningdek, ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan energiya hisobidan har yili 9,79 mln tonna shartli yonilg‘i miqdorida energiya tejash kutilmoqda.

Aholi uchun kafolatlangan energiya resurslarining ochiqligini ta’minlashga qaratiladigan chora-tadbirlar esa uzoq qishloq hududlarida aholining hayot sifatini yaxshilash va ularning farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda uglevodoroddan keng foydalanish uchun katta miqdorda sarmoyalari yo‘naltirilmoqda. Ayni paytda jahon miqqosida ishlatilayotgan kunlik organik yoqilg‘ining umumiy hajmi 12 mlrd. tonna neft ekvivalentiga teng ekanligi shundan dalolatdir. Ya’ni so‘nggi qirq yil davomida organik yoqilg‘i qazib olish miqdori, insoniyatning bundan oldingi butun tarixida qazib olingan uglevodorod zahiralari miqdoridan ko‘pdir. Vaholonki, an’anaviy energiya zahiralari cheklangan. Agar shunday sur’atlar davom etadigan bo‘lsa, hisob-kitoblarga ko‘ra, sayyoramiz bo‘yicha qora oltin zahiralari 55-60 yilga yetadi, xolos. Bu muddat tabiiy gazda 70 — 75, ko‘mir bo‘yicha 150-160 yil baholanayapti. Boz ustiga, uglevodorod manbalarini surunkali sarflash tufayli atrof-muhit, aholi salomatligiga putur yetkazilayapti, iqlim o‘zgarishi kuzatilib, ozon qatlami yemirilmoqda. Mutaxassislarining aniqlashicha, neft va gaz zahiralari 55-75 yildan so‘ng tugashi mumkin ekan. Shularni inobatga olsak, noan’anaviy energiya manbalarini rivojlantirish, uni hayotimizga yanada keng olib kirishni davrning o‘zi taqozo etadi. Quyosh, shamol kabi muqobil energiya manbalari nafaqat cheklanmaganligi, balki ekologiyaga zararsizligi bilan ham ajralib turadi.

Insoniyat hamisha energiyaning eng samarali manbalarini izlab topishga harakat qiladi. Ayniqsa, bugungi davrda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, energetika xavfsizligini ta’minlash har bir davlat uchun eng ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda.

Keyingi paytda uglevodorod xomashyosini qazib olish borasida yuz bergen, «slanets inqilobi» deb atalayotgan yangi bosqich ertaga ba’zi qit’alar,

mamlakat va hududlarning energetika bozoridagi hamda jahon maydonidagi kuchlarning geosiyosiy joylashuvidanagi o‘rni va rolini o‘zgartiradigan jiddiy omilga aylanishi mumkinligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Biroq bunday o‘zgarishlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga, birinchi navbatda, dunyodagi eng sof quyosh energiyasidan foydalanishga bo‘lgan, yildan-yilga ortib borayotgan qiziqish va ehtiyojni hech qachon susaytira olmaydi. Bu haqda gapirganda, quyidagi faktga alohida e’tibor qaratish lozim. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda elektr energiyasi ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari o‘rtacha 3,4 foizni tashkil etayotgan bir paytda, qayta tiklanadigan energiya manbalarining eng istiqbollik tarkibiy qismi bo‘lgan quyosh energiyasi keyingi besh yil davomida har yili misli ko‘rilmagan sur’atlarda oshmoqda.

Agar 2008-yilda bir kilovatt-soat quyosh elektr energiyasini ishlab chiqarish 35 sent darajasida bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib bu raqam, ekspertlarning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha 11-12 sentni tashkil etayotgani, Xitoy va Hindiston kabi ayrim mamlakatlarda esa barpo etilayotgan fotoelektr stansiyalarda bir kilovatt-soat elektr energiyasi tannarxini 8-9 sentga qadar tushirish vazifasi qo‘yilayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, hech shubhasiz, bu maqsadga erishish mumkin ekani ayon bo‘ladi.

Ushbu sharoitlarda muqobil energiya manbalarini hayotga yanada keng tatbiq etish kun tartibiga chiqishi tabiiy. Sababi, ularning gelio, gidro va shamol energiyasi, biomassa kabi turlari deyarli beqiyosdir va qayta tiklanaveradi, hozirgi jadal innovatsion taraqqiyot davriga juda mos, yangi ish o‘rinlari yaratishda ayni muddao. Qolaversa, shu asosda ishlovchi texnika hamda texnologiya ekologik jihatdan toza, atrof-muhitga bezarar, texnogen halokatlarga olib kelmaydi.

Binobarin, hozirgi davrda bir qator davlatlar soha rivojiga qaratilgan loyihalarini amaliyatga tobora keng joriy etayapti, buning uchun investitsiya yo‘naltirmoqda, istiqbolli ishlanmalar hamda tadqiqotlarni qo‘llab-

quvvatlamoqda. Shu usulda elektr quvvati va issiqlik ishlab chiqarish bazalari, infratuzilmalari barpo etayapti.

Garchi rivojlanishning mazkur yo‘lidan borish katta sa’y-harakatlar, kuchg‘ayrat, muayyan sarf-xarajatlarni talab etsa-da, ular zoe ketmasligi, o‘zini to‘liq oqlashi amaliyotda isbotini topayotir. Bugungi kunda bir kilovatt-soat quyosh elektr energiyasini ishlab chiqarish tannarxi 11-12 sent yoki undan ham arzon narxlarga tushishi hisoblab chiqilgan. Bu esa fotoelektrik qurilmalar yetkazib berayotgan quvvat jihatidan yaqin kelajakda an’anaviysi bilan raqobatlasha oladi, degan xulosani beradi.

Yurtimizda muqobil energiya manbalari, eng avvalo, quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida katta tajriba to‘plandi. Markaziy Osiyoda o‘xhashi yo‘q ilmiy-eksperimental markaz – Fanlar akademiyasining «Fizika-Quyosh» ilmiy ishlab-chiqarish birlashmasi faoliyat yuritayapti. Issiq suv va issiqlik ta’mnoti uchun past potensialli qurilmalar, elektr quvvati olish uchun fotoelektrik va termodinamik o‘zgartkichlar, maxsus materiallar sintezi texnologiyalarini yaratish, materiallar va konstruksiyalarga termik ishlov berishda Quyosh energiyasidan foydalanish singari bir qator yo‘nalishlarda qo‘lga kiritilgan natijalar alohida e’tirof etilmoqda.


Shular barobarida gelioenergiya bilan suv isitadigan qurilmalar asosida uy-joylar va ijtimoiy ob’yektlarni issiq suv bilan ta’minalash tizimlari ishlab chiqilib, ulardan tajriba tariqasida foydalanilmoqda.

Mamlakatimiz hali yetarlicha o‘rganilmagan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ega, ular asosan quyosh va shamol resurslari bo‘lib, toza va barqaror energiyani ta’minlay olish imkoniyati mavjud. O‘zbekiston Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi eng energik-intensiv mamlakatlar qatoriga kirishi kutilmoqda. 2000-yildan 2015-yilgacha elektr energiyasi iste’moli yiliga 46.8 mlrd kVts dan 57.5 mlrd kVtsgacha oshdi. Hisob kitoblar shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilgacha bu ko‘rsatkich 25 foiz ko‘proq, ya’ni 71.8 mlrd kVtsni tashkil qilishi mumkin.

Ayni paytda, O‘zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya resurslarini ko‘rib chiqsak:

- Quyosh energiyasi: 525 dan 760 mlrd. kVt.s gacha;
- Shamol energiyasi: 1 trln kVt.s gacha;
- Gidroenergetika: 21 mlrd. kVt.s dan oshiq;
- Biomassa: 6 mlrd. kub.m.

Qayta tiklanuvchi energetika baribir hali beri o‘z samaradorligini ko‘rsatishi uchun ancha vaqt va mablag‘ni talab etadi. Hozirda mavjud asosiy muammolarimizni statistik kuzatishlarda ko‘rib chiqsak. Albatta, o‘z-o‘zidan nega bu ko‘rsatkich yuqori degan savol tug‘iladi. Respublikamizda energiya YaIM iste’moli yuqoriligining turli sabablari mavjud bo‘lib, asosiy sabablaridan biri, sanoat tarmoqlari korxonalarida jismoniy eskirgan texnologiyalarning haligacha ishlatib kelinishi deyish mumkin. Bu esa boshlang‘ich manbadan kelayotgan 60 foiz energiyaning yetkazuvchi va tarqatish tizimlarida yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, fakel (mash’al) qurilmalaridagi gazni yoqish ham katta miqdorda pulni osmonga sovurish degani (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. O‘zbekistonning YaIM energiya iste’moli sezilarli darajada yuqori, kg. neft ekvivalenti/AQSh doll.⁶¹

⁶¹Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., “Яшил иқтисодиёт” асосида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари, “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №2, 2017 йил.

Masalan, 2011-yili mash'al uskunalaridagi gaz yonishidan ko'rilgan zarar miqdori 500 million AQSh dollollarini tashkil qilgan. Bu miqdordagi pulga O'zbekistondagi 1,5 million xonadonning tomiga quyoshdan quvvatlanuvchi vakumli suv isitish moslamasini yoki 1 milliondan oshiq xonadon tomiga quyosh panellari tizimini o'rnatish mumkin.

Biroq, uyingizni mutlaqo to'liq bu tizim bilan ta'minlash arzonga tushmaydi. Rivojlangan davlatlar uchun ham bu muammo begona emas. Misol uchun, AQShning Kaliforniya shtatida paydo bo'lganiga o'n yildan oshgan SolarCity energetika kompaniyasi bu tizimlarni aholiga sotish emas, balki lizingga berish orqali yechim topgan ekan. Hozirga kelib, SolarCity 300 000 dan ziyod uylarga xizmat ko'rsatadi, uning qurilmalarini 10 yildan 20 yilgacha kredit, lizing orqali to'lab borish mumkin.

«Yashil iqtisodiyot»ga o'tish, aksincha, kelajak avlodlarni ekologik xavf-xatarlarga yoki ekologik tanqislikka duchor qilmasdan, aholi farovonligi va hayot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mutaxassislar «Yashil» reoslarga o'tishning beshta asosiy yo'nalishini belgilab olishadi:

1. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish.
2. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida «Yashillashtirish».
3. «Toza» transportni rivojlantirish.
4. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish.
5. Yer va suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish.

Mutaxassislar ushbu sohalarning har birida «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish orqali jami qo'shimcha yillik foydalarni hisoblashdi. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbai sektorida kutilayotgan foya 5 milliard dollardan oshadi. Shu bilan birga, «Yashillashtirish» siyosati qo'shimcha «Yashil» ish bilan ta'minlashga olib keladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, faqat qayta tiklanuvchi energiya sektorida 2020-yilgacha 175 mingta qo'shimcha ish o'rnlari va 2050-yilgacha 270 mingga yaqin ish o'rnlari tashkil etilishi mumkin.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvni tejash texnologiyalarini keng qo'llash, suvni boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish hisobiga yerning sifatini pasayishi va sho'rlanishining oldini olish. Organik dehqonchilik qoidalarini joriy qilish, mineral o'g'itlar va pestitsidlar o'rnila mikroorganizmlar va o'simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanish nafaqat mamlakat dasturxonlarini to'ldirish, tashqi bozorlarga talab katta bo'lgan ekologik toza mahsulotlar eksportini oshirish, balki kelajakda asosan qishloq joylarda yuz minglab yangi ish o'rinalarini yaratishga imkon beradi.

Suv xo'jaligini «Yashillashtirish»ning muhim yo'nalishi- ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish va ekologik toza kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish. Ushbu yo'nalishda amaliy qadamlar biri Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida suv ta'minoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish va Jahon Banki ishtirokida suv ta'minoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Orol dengizi mintaqasida esa asosiy suv quvurlarini yaxshilash, tuzsizlantirish zavodlaridan foydalangan holda mahalliy ichimlik suvi tizimlarini yaratish bo'ldi. Bugungi kunda ekologik harakati boshqa tashkilotlar bilan bir qatorda aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha istiqbolli loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etmoqda. Ular ichimlik suvi manbalarini ifloslanishi va butunlay yo'q bo'lib ketishidan himoya qilishni kuchaytirishni, manzilga eltib berish mushkul bo'lgan va olisda joylashgan aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashni, sanoat va maishiy chiqindilarni tozalash tizimini takomillashtirishni taklif etadi.

Har qanday iqtisodiy tizimni energiya komponentisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Amalda isbotlangan, ya'ni muqobil energiya ishlab chiqarish elektr va issiqlik ishlab chiqarish uchun yangi texnologik bazani shakllantirishga, energiya samaradorligini oshirishga, hayot sifatini yaxshilashga, yangi ish joylarini yaratishga olib keladi. Bir qator mamlakatlarda muqobil energiya manbalarining ulushini keyingi o'n yil ichida 20, ba'zilarida esa 30 foizgacha oshirish vazifasi turibdi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llash

tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularni sotib olish va ularni ishga tushirishga sarflanadigan katta miqdordagi xarajatlarga qaramay, ular odatda ekspluatatsiya davrida o'z harajatlarini to'liq qoplaydi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, O'zbekistonni «Yashil iqtisodiyot» tizimiga o'tkazish sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, menejment, ta'lif tizimini isloh qilish va modernizatsiyalashning barcha jihatlarini, xodimlarni malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, yangi ish joylarini yaratish bo'yicha tizimli yondashishni talab qiladi⁶².

Bugungi kunda elektr energiya sohasidagi islohotlarni hayotga joriy etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyatga egadir. «O'zbekenergo» aktsiyadorlik jamiyati elektroenergetika sohasida mamlakatimizdagi vakolatli organ sifatida iqtisodiyotimiz tarmoqlari va aholining markazlashgan elektr ta'minotini amalga oshirish bilan bir qatorda respublikamiz shaharlaridagi sanoat hamda kommunal-maishiy iste'molchilarni issiqlik energiyasi bilan ham ta'minlaydi.

Ayni paytda «O'zbekenergo» AJ tarkibida 54 ta korxona mavjud. 40 ta aktsiyadorlik jamiyati, 11 ta unitar korxona va 3 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat shular jumlasiga kiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston elektrostantsiyalarining belgilangan jami quvvati 14,1 million kilovattdan oshadi. Xususan, «O'zbekenergo» AJ tomonidan 13,6 million kilovatt elektr-energiysi ishlab chiqarilmoqda. Ushbu elektr energiyasining 85 foizi issiqlik elektr stantsiyalari, 12 foizi gidroelektrostantsiyalar ulushiga to'g'ri keladi⁶³.

«O'zelektrtarmoq» unitar korxonasi o'zining jami uzunligi 8,8 ming kilometrli 220-500 kV kuchlanishli magistral tarmoqlari orqali elektr energiyasini manbadan taqsimlash korxonalariga yetkazib berishga ixtisoslashgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-martdagi 2017—2021 yillar davrida «O'zbekenergo» AJda tuzilmaviy o'zgarishlarni

⁶² <http://www.pv.uz/uz/24196>

⁶³ http://uza.uz/uz/politics/mdh-elektr-energetika-kengashining-majlisi-04-11-2017?month%11&year%2017&element_codekmdh-elektr-energetika-kengashining-majlisi-04-11-2017§ion_codekpolitics

hamda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash borasidagi farmoniga muvofiq, jami qiymati 11 milliard AQSh dollari miqdoridagi 62 ta investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilayotir. Shunisi e'tiborga molikki, yuqoridagi loyihalardan 25 tasi issiqlik energetikasi sohasiga tegishli hisoblanadi.

Issiqlik energetikasi sohasidagi tadbirlarni ro'yobga chiqarish yuqori samarali bug'-gaz va gaz turbina qurilmalari negizida zamonaviy texnologiyalarni elektr energiyasi ishlab chiqarishga joriy etishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, «O'zbekenergo» AJ elektr energiyasi nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini amaliyatda qo'llash bilan elektr energiya hisobi tizimini modernizatsiyalashga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur loyiha kelgusida bosqichma-bosqich ravishda butun mamlakat hududida amalga oshiriladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham bu masala dolzarbligicha turibdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda butun dunyoda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etayotir. Bugungi kunda, 2030-yilga qadar, issiqlik energetikasi hamda muqobil/qayta tiklanuvchi energetika sohasida 50 dan ziyod loyihalarni amalga oshirish orqali respublikamizning elektroenergetika quvvatlarini qo'shimcha 10 000 MVtga oshirish ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda elektroenergiya ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, o'z ichiga ishlab turgan issiqlik elektrostansiyalardagi energobloklarni modernizatsiya qilish, ularda qo'shimcha zamonaviy energo bloklarni qurish, zamonaviy issiqlik elektrostansiyalarni barpo etish, shuningdek, O'zbekiston uchun yangi bo'lgan atom energetikasini joriy etishni qamrab olgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qayta tiklanadigan energetika sohasida mavjud gidroelektrostansiyalarni modernizatsiya qilish, yangi gidroelektrostansiyalar bunyod etish, quyosh va shamol elektrostansiyalarini qurish rejalashtirilgan. Bunda ayniqsa, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Aytish kerakki, keyingi yillarda mamlakatimizda bu kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali

foydalinish borasida samarali loyihalar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, yaqin yillar ichida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalinish maqsadida Samarqand, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida har biri 100 mVt quvvatli 3 ta quyosh elektr stantsiyasini va Navoiy viloyatida 102 mVt quvvatli shamol elektrostantsiyasini qurish ko‘zda tutilmoqda.

Dasturda belgilangan energiya tejovchi zamonaviy texnologik uskunalarini amaliyatga joriy etish kamroq issiqlikni sarflagan holda energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Respublika iste’molchilarini elektr bilan barqaror ta’minlash hamda energiya zahiralari sarfini kamaytirish maqsadida 2016-yilda Tallimарjon issiqlik elektr stantsiyasida 450 mVt quvvatli ikkita bug‘-gaz bloki foydalishga topshirildi. Ular yiliga 7 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Shuningdek, Angren issiqlik elektr stansiyasida 150 million mVt quvvatli energoblok ishga tushirildi. Uning yillik elektr ishlab chiqarish hajmi esa 900 million kVt soatni tashkil etadi. Ayni paytda Navoiy issiqlik elektr stansiyasida 450 mVt quvvatga ega bo‘lgan ikkinchi bug‘-gaz qurilmasini, Taxiatosh issiqlik elektr stantsiyasida 230-280 mVt quvvatli ikkita bug‘-gaz qurilmasini hamda Namanganda umumiy quvvati 900 mVt bo‘lgan To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stantsiyasini barpo etish ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekiston elektroenergetika sohasida elektroenergiyaning 88,5 foizi issiqlik elektrostansiyalarida, 10,6 foizi gidroelektrostansiyalarida va 0,9 foizi blok stansiyalarida ishlab chiqariladi. Respublikaning elektroenergetika resurslari 2018-yilning 1-choragida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,9 foizni tashkil etdi⁶⁴.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalari (shamol, quyosh, gidravlik energiya)ning katta zahirasiga ega bo‘lib, ularni issiqlik-energetika balansiga kirgizish istiqbolli hisoblanadi. Nega deganda, mamlakatning barcha mintaqalarida quyoshli kunlarning davomiyligi yiliga 2650 soatdan 3050 soatgachani tashkil etadi. Mutaxassislarning tahliliga

⁶⁴ <https://mineconomy.uz/uz/node/2095>

ko‘ra, yurtimizda quyosh yorug‘ligining yalpi quvvati 525 milliard kVt soatdan 760 milliard kVt soatgacha deb baholanmoqda.

Qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, gidroenergetik salohiyatdan foydalanish bo‘yicha xalqaro moliya institutlarini jalb etgan holda Toshkent, Qodiriya, Quyi Bo‘zsuv va Shahrixon kaskadlarini modernizatsiyalash va rekonstruktsiyalashning investitsion loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ko‘mir sanoati ham muhim o‘rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va aholini ko‘mir bilan barqaror ta’minlash mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ayni vaqtda respublikamizda aniqlangan ko‘mir zahiralari 2,2 milliard tonnani, taxminiy zahiralari miqdori esa 5,7 milliard tonnadan ziyodni tashkil etishini nazarda tutsak, sohaning istiqbolli ekani o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston energetika balansida ko‘mir ulushini ko‘paytirish muhimligini e’tiborga olgan holda 2017—2021 yillarda ko‘mir sanoatini rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Ayni kunda yiliga o‘rtacha 3,7 million tonna ko‘mir qazib olinayotgan bo‘lsa, qabul qilingan dasturning amaliyotga joriy etilishi tufayli 2030-yilga borib, yiliga 14 million tonnaga yetadi.

Yana bir diqqatga sazovor jihatni, mamlakatimizda shu singari «Yashil texnologiyalar»ni qishloq xo‘jaligi, energetika, chiqindilarni boshqarish, transport, ta’lim va fan sohalariga keng tatbiq etish kelgusi o‘n yil ichida 550 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Muxtasar aytganda, respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya resurslarini tadqiq etish va joriy qilish ishlarini yanada yuqori darajaga ko‘tarish, mavjud muammolarga o‘z vaqtida tashkiliy-huquqiy, ilmiy-texnik, innovatsion yechimlar topish yurt ravnaqi, el farovonligini yuksaltirish, aholi salomatligi, atrof-muhit musaffoligini yanada samarali ta’minlashda dolzarb hisoblanadi.

3-BOB bo‘yicha xulosa

Mustaqillik sharofati bilan bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida ekologik barqarorlikni kafolatlash mexanizmlari samarali tatbiq etildi. Sohaga oid o‘ttizga yaqin qonun va 150 ga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan atrof-muhitni muhofaza etish sohasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanishni kengaytirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatga ega.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish izchil tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Fikrimcha, O‘zbekistonni «Yashil iqtisodiyot» tizimiga o‘tkazish avvalo ushbu tizimga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etgan holda turli sohalarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va aholini muntazam ravishda «Yashil iqtisodiyot» konsepsiysi bilan tanishtirib borish, ta’lim tizimiga yangi fan va o‘quv dasturlarini kiritish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish:

1. milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga;
2. resurslardan samarali foydalanishga;
3. yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga;
4. xalqaro bozorlarda mamlakat nufuzining oshishiga olib keladi va eng asosiysi aholining farovon yashashini ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar faqat bitta maqsadga—aholi farovonligini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va xalqimizni rozi qilishga yo'naltirilgandir.

Keyingi yarim asr mobaynida sayyoramizda ekologik xavf-xatarlar miqdori ortib borayotgani mutaxassis-olimlarni jiddiy tashvishga solayotir. Iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarida energiyadan foydalanishning me'yordan ortib ketishi muammoning asosiy sababi sifatida e'tirof etilmoqda. Yoqilg'inining organik turlaridan foydalanuvchi elektr va issiqlik stansiyalari hamda ichki yonuv dvigatellaridan chiqayotgan zararli gazlar tufayli atrof-muhit ifloslanmoqda. Yillar davomida atmosferaga zararli moddalar qoldiqlarini katta miqdorda chiqarib yuborilishi natijasida ozon qatlamiga putur yetgan, Yerda esa global energiya tanqisligi vujudga kelmoqda. Natijada dunyo iqlimining o'zgarishi, energiya quvvati manbalarining kamayishi butunjahon oziq-ovqat tanqisligi muammosi bilan chambarchas bog'lanib, insoniyat oldiga ulkan muammolarni qo'yemoqda.

Bundan tashqari, dunyo aholisi sonining muttasil oshib borayotgani sababli energiyaga bo'lgan talabni mavjud energiya tizimlari ta'minlab bera olmaydigan vaziyat yuzaga kelmoqda. Dunyoning 65dan ziyod mamlakatlari o'z oldiga quyosh, shamol, suv energiyasidan foydalanish orqali muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shuningdek, vodorod, biogaz va boshqalardan kengroq foydalanishga qaratilgan maqsadlarni qo'yishgan.

Respublikamiz hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini energiyasidan foydalanish bo'yicha zahiralar hali to'laligicha ishga solinmagan va ular bo'yicha hududiy manzilli dasturlar ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Vaholanki, yurtimizda muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari katta. Aytaylik, respublikamizda yilning asosiy qismi 300 kun quyoshlidir, ekspertlarning fikriga ko'ra uning kuvvati 50 trillion 973 million tonna shartli yoqilg'iga teng bo'lib, mamlakatimizda aniqlangan jami energiya zahiralariga nisbatan ancha ko'pdir. Qolaversa, yurtimiz tabiiy sharoiti quyosh va shamol energetikasidan birgalikda foydalanish uchun qulaydir. Ayniqsa, mamlakatimizda kichik turdag'i muqobil energiya manbalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Serquyosh o'lkamizda ham «quyoshli uy»lar qurish, ularni quyosh nuri bilan isitish, issiq suv va fotoelektrik energiya bilan ta'minlash imkoniyati yuqori. Yurtimizda ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishga qaratilgan innovatsiya loyihalarining ishlab chiqilishi, ularga mahalliy va xorijiy sarmoyaviy manbalarning keng jalb etilishi mazkur soha istiqbolini ta'minlashga munosib xizmat qiladi.

Yuqoridagi so'zlarni muxtasar qilgan holda, chuqr qayta o'ylab ishlab chiqilgan takliflar quyidagilardan iborat:

- 1) investitsiyaviy loyihalarning jozibadorligini yanada oshirgan holda ishlab chiqish;
- 2) mamlakatimizga kiritilayotgan sarmoyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'ini oshirish;
- 3) xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish;
- 4) eksportga mo'ljallangan, chuqr qayta ishlangan tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- 5) soliq, bank-moliya tizimini chuqr qayta isloq qilish, samarasiz kredit va subsidiyalardan voz kechish;
- 6) mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

7) “yashil” energiyadan keng foydalanish bo‘yicha hukumat va hududiy hokimliklar qarorlarini qabul qilish;

8) aholi va davlat energiya iste’molida energiya tejamkor texnologiyalarni qo’llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

9) “yashil” uy va binolarni qurish bo‘yicha amaliy taklif va ishlanmalar ishlab chiqish;

Xulosa qilib aytganda, kelajakda iqtisodiyot taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 1996-yil 25-apreldagi 220-I-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 1992-yil 9-dekabrdagi 754-XII-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi (Yangi tahrir) 1998-yil 24-dekabrdagi 719-I-sonli Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi 2012-yil 17-dekabrdagi O‘RQ-339-sonli Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Iqtisodiy Protsessual kodeksi”, 2018-yil 24-yanvar, 0623-ton.
7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi, rekonstruksiyalash va rivojlanish xalqaro banki, Rivojlanish xalqaro assosiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Ko‘p tomonlama sarmoya ajratishni kafolatlovchi agentlikka a’zoligi to‘g‘risida”gi 1992-yil 2-iyuldagli 621-XII-sonli Qonuni.

II. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONLARI VA QARORLARI, VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 7-maydagli PQ-3698-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish

bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-maydagi PQ-3697-sonli qarori.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан “О программе мер по дальнейшему развитию возобновляемой энергетики, повышению энергоэффективности в отраслях экономики и социальной сфере на 2017 — 2021 годы”, № ПП-3012, г. Ташкент, 26 мая 2017 г.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub’ektlarini qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 3-noyabrdagi PQ-3351-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-noyabrdagi PQ-3379 sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xom ashyo turlari bilan barqaror ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli qarori) PF-5429.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli farmoni.
9. Постановление Президента Республики Узбекистан “О программе мер по сокращению энергоемкости, внедрению энергосберегающих технологий в отраслях экономики и социальной сфере на 2015-2019 годы”, № ПП-2343, г.Ташкент, 5 мая 2015 г.

10. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “Об утверждении Положения о Республиканской комиссии по вопросам энергоэффективности и развития возобновляемых источников энергии”, № 238, г. Ташкент, 13 августа 2015 г.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli qarori.
12. Указ Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему развитию альтернативных источников энергии”, № УП-4512, г. Ташкент, 1 марта 2013 г.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-sentabrdagi 704-sonli qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respubliaksi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2017-yil 25-oktabrdagi PQ-3356-sonli qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i energetika resurslari bilan o‘z vaqtida ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 14-noyabrdagi 913-sonli qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashkilotni qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarish qurilmalari tayyorlashga ixtisoslashayotgan tashkilot sifatida identifikasiyalash mexanizmi to‘g‘risidagi nizom”ni tasdiqlash haqida 2017-yil 13-noyabrdagi 908-sonli qarori.

III. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Ўзбекистон” НМИУ, Тошкент: 2018. 80 б.
2. Ш. Мирзиёев, “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” номли, мамлакатимизни 2016-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъruzаси, - Т.: -2017.
3. Ш. Мирзиёев, “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”, - Тошкент.: - “Ўзбекистон” - 2017.
4. Ш. Мирзиёев, Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. - Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
5. Ш. Мирзиёев “Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ., - Тошкент. 2016. 56 б.

IV. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. И. А. Каримов, “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари”. - Т.: Ўзбекистон, 2009.

2. A.V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev, Sh. I. Raxmanov, X. A. Usmanova, “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” o‘quv qo‘llanma - T.: «Voris-nashriyot», 2014-y.
3. O‘lmasov A., Vaxobov A. V., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – T.: Iqtisod-moliya, 2014.
4. Nazarova G.G’., Salixova N.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi (o‘quv qo‘llanma), TDIU, 2011.
5. Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo‘lida – T.: Iqtisodiyot, 2008. 126-b.
6. “Iqtisodiy o‘sish” Darslik, Termiz Davlat Universiteti, 2009-yil.
7. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012.
8. Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF, 2018. Global Trends in Renewable Energy Investment 2018.
9. Molly Scott Cato, Green Economics, An Introduction to Theory, Policy and Practice, First published by Earthscan in the UK and USA in 2009.
10. Green Growth, Smart Growth- A new Approach to Economics, Environment&Innovation, 29. August 2016.
11. Boris Porfiryev, Climate Change and Economy, 7 july 2010.
12. A guidebook to the Green Economy, Division for Sustainable Development, UNDESA, August 2012.
13. The Economics of Ecosystems and Biodiversity in National and International Policy Making, February 2011.
14. Green Financing: More than a Trend, July 20, 2011.
15. Water and the Green Economy capacity Development Aspects, UNW-DPC, Bonn, Germany, May 2012.
16. McKinsey Global Institute. Beyond the supercycle: How technology is reshaping resources. February, 2017. 19-34.

V. QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. А.В. Вахабов, Ш. Х. Хажибакиев, “Яшил иқтисодиёт” асосида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари, “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. №2, 2017.
2. А. В. Вахабов, Ш. Х. Хажибакиев, Барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлашда “яшил” иқтисодиётнинг ўрни// “Жаҳонда барқарор иқтисодий ривожланиш концепцияларини амалга ошириш механизми ва дастаклари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. - Тошкент:- “Университет”. 2018. 239 б.
3. А. В. Вахабов, С. Н. Ходжикулова “Яшил иқтисодиёт”ни халқаро кредитлаш манбалари, таркиби ва тенденциялари// “Жаҳонда барқарор иқтисодий ривожланиш концепцияларини амалга ошириш механизми ва дастаклари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. - “Университет”. 2018. 239 б.
4. Mo‘minov A. «Iqtisodiy o‘sish va uning omillari nimalardan iborat» //O‘zbekiston ovozi. 2016-yil 20-may.
5. Barqaror iqtisodiy o‘sish va uni ta’minalash bosqichlarining tahlili, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı, №6, noyabr-dekabr, 2014.
6. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalashning nazariy va amaliy jihatlari, “XXI asr: fan va ta’lim” ilmiy elektron jurnalı. №2, 2017.
7. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash-barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalashning muhim sharti, “Iqtisodiyot va Ta’lim” ilmiy jurnalı, №2, 2017.
8. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı, №1, yanvar-fevral, 2017.

9. Т.В. Захарова «Зеленая» экономика как новый курс развития: глобальный и региональный аспекты. Вестник Томского государственного университета, №4(16), 2011.
10. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления /Под ред. В.В. Попкова. Учебник. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 с.
11. «Зеленая экономика» как глобальная стратегия развития в посткризисном мире.
12. «Зеленая» экономика и ее будущее, "Экономика. Налоги" журнал. №6. 2015.
13. Словарь современной экономической теории Макмиллана – М.,1997.с. 471.
14. Krupa, J.; Harvey, L. D. D. Renewable electricity finance in the United States: A state of the art review. Energy 2017, 135.
15. Zeng, S.; Jiang, C; Ma, C; Su, B. Investment efficiency of the new energy industry in China. Energy Econ. 2017.

VI. DAVRIY NASHRLAR, STATISTIK TO‘PLAMLAR VA HISOBOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi “O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami” – Т.: -2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qomitasi “O‘zbekiston Respublikasining Statistik axborotnomasi” – Т.: -2018

VII. INTERNET SAYTLARI.

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.
2. www.nrm.uz
3. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining sayti.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi
5. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

6. http://norma.uz
7. https://mineconomy.uz
8. www.cer.uz
9. www.aza.uz - O‘zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi
10. www.pv.uz
11. www.un.uz
12. www.unep.org
13. www.unictad.org
14. www.worldbank.org
15. www.wto.org
16. www.imf.org
17. www.statica.com
18. www.eclife.ru
19. http://portalenergo.ru